

# O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami





© 2022 Jahon banki

1818 H Street NW, Washington DC 20433

Telefon: 202-473-1000; Internet: [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

**Barcha huquqlar himoyalangan**

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (O'zR ITKQV), Jahon banki va Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) xodimlarining mahsuli hisoblanadi.

Ushbu to'plamda keltirilgan xulosalar, talqinlar va natijalar Jahon banki, uning Ijrochi Direktorlar Kengashi yoki ular vakili bo'lgan hukumatlarning fikrlarini aynan aks ettiradi deb tushunmaslik kerak. Jahon banki ushbu to'plamga kiritilgan ma'lumotlarning aniqligi, to'liqligi yoki dolzarbligiga kafolat bermaydi va ma'lumotlardagi xatolar, kamchiliklar yoki nomuvofiqliklar uchun javobgarlikni, shuningdek, ma'lumotlar, usullar, jarayonlar yoki xulosalardan foydalanish yoki ulardan foydalanmaslik bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ushbu to'plamdagi har qanday xaritada ko'rsatilgan chegaralar, ranglar, nomlar va boshqa ma'lumotlar Jahon banki tomonidan biron bir hududning huquqiy maqomi yoki bunday chegaralarni tasdiqlash yoki qabul qilish haqidagi qarorini anglatmaydi.

Bu to'plamda hech narsa Jahon bankining barcha maxsus himoyalangan imtiyozlari va immunitetlarini cheklash yoki ulardan voz kechish deb hisoblanmaydi yoki talqin qilinmaydi.

### **Mualliflik huquqi va ijozatlar**

Ushbu to'plamdagi material mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Jahon banki o'z bilimlarini tarqatishni rag'batlantiradi va shu sababli, ushbu to'plamga to'liq havola berilgan holda, notijorat maqsadlarda material to'liq yoki qisman keltirilishi mumkin.

Ushbu to'plamga to'liq havola quyidagicha beriladi: "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."

Huquqlar va litsenziyalar, shu jumladan, qo'shimcha huquqlar bo'yicha har qanday so'rovlar quyidagi manzilga yuborilishi lozim: World Bank Publications, The World Bank Group, 1818 H Street NW, Washington, DC 20433, USA; faks: 202-522-2625; elektron pochta: [pubrights@worldbank.org](mailto:pubrights@worldbank.org).

Taqdimotlar, tasvirlar va maket: Zoï Environment Network ([www.zoinet.org](http://www.zoinet.org))

## Mundarija

Minnatdorchiliklar.....	iii
Qisqacha ma'lumot.....	iv
1. O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va iqlim o'zgarishi muammolarini hal etish bo'yicha siyosiy muloqotlar uchun sharoitlar yaratish .....	1
2. Pandemiyadan keyingi "yashil" tiklanish: "yashil" iqtisodiyotga o'tish kontseptsiyasi.....	3
3. Sanoat hamda energetikaning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini qo'llab-quvvatlash .....	5
4. Kam uglerodli, barqaror va inklyuziv urbanizatsiyani qo'llab-quvvatlash.....	7
5. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar va imkoniyatlar: 2030-yilgacha bo'lgan iqlim strategiyasi loyihasidan 2050-yilgacha uzoq muddatli karbonsizlanish strategiyasiga.....	9
6. Tabiiy ofatlarga javob choralari tizimini kuchaytirish orqali iqlimga chidamlilikni oshirish.....	11
7. Iqlim siyosatidan eng ko'p zarar ko'rgan odamlar va hududlarni qo'llab-quvvatlash .....	13
8. Tarmoqlararo tadbirlar va tabiiy resurslardan oqilona, samarali foydalanish orqali iqlim barqarorligini rivojlantirish... ..	15
9. Qulay siyosiy muhit: islohotlar, huquqiy va siyosiy jarayonlar, iqlim o'zgarishi va "yashil" o'sish sohasidagi rejalar. ....	17
10. "Yashil" moliyalashtirishni safarbar qilish, davlatning innovatsion va samarali "yashil" xaridlari .....	19
11. "Yashil" iqtisodiyotning strategik asoslari hamda "yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi kun tartibini oldinga siljitish.....	21

## Minnatdorchiliklar

O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi bo'yicha Ishlar To'plami O'zR ITKQV, Jahon banki va MOMEM ning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari mahsulidir. To'plam O'tkirjon Xolbadalov (O'zbekiston Respublikasi ITKQV "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish departamenti direktori), Leela Raina (Jahon banki, iqtisodchi) va Irina Bekmirzayeva (MOMEM, dastur menejeri) rahbarligida tayyorlangan.

Jamoa, Bahodir Qoriyev (O'zR ITKQV, "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi rahbari), Shohzod Islomov (O'zR ITKQV, "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi), Yulduz Salimova (O'zR ITKQV "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi), Botir Ismoilov (O'zR Tashqi ishlar vazirligi uchinchi kotibi), Jeyn Ebinger (Jahon banki, Barqaror rivojlanish sektori rahbari), Paola Agostini (Jahon banki, tabiiy resurslarni boshqarish bo'yicha yetakchi mutaxassis), Kirtan Sahoo (Jahon banki, iqlim o'zgarishi bo'yicha katta mutaxassis), Ikrom Nazarov (MOMEM, guruh rahbari), Raisa Taryannikova (MOMEM, tematik mutaxassis), Umid Nazarqulov (MOMEM, iqtisodchi-maslahatchi), Irina Bubenko (MOMEM, bilimlarni boshqarish bo'yicha mutaxassis), Azamat Toshev (MOMEM, iqlim o'zgarishi bo'yicha mutaxassis) va Sanjar Mustafin (MOMEM, xaridlar bo'yicha mutaxassis) larga o'z minnatdorchiligini bildiradi. Ularning yordamisiz siyosiy muloqotlar turkumini amalga oshirish va ushbu to'plamni yaratish mumkin bo'lmas edi. Umumiy rahbarlikni Ilhom Norqulov (O'zR ITKQV, vazirning birinchi o'rinbosari), Marco Mantovanelli (Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha menejeri), Kseniya Lvovsky (Jahon banki, Yevropa va Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish departamenti Atrof-muhit tabiiy resurslari va moviy iqtisodiyot bo'yicha amaliyot menejeri), Tatyana Proskuryakova (Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori), Steven Schonberger (Jahon banki, barqaror rivojlanish bo'yicha mintaqaviy direktor) va Zafar Mahmudov (MOMEM ijrochi direktori) lar olib bordilar. Jamoa shuningdek, O'zR ITKQV, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturidagi (BMTTD) hamkasblariga hamda ekspert sifatida ishtirok etgan, muhokamalarda qatnashgan, ushbu to'plamni ko'rib chiqqan, tahrir qilgan va ishlab chiqqan boshqa ko'plab odamlarga minnatdorchilik bildiradi. Jahon bankining quyidagi guruhlarini ushbu to'plamga o'z hissarini qo'shdilar: Atrof-muhit, Tabiiy resurslar va Moviy iqtisodiyot; Suv; Qishloq xo'jaligi; Energetika; Shaharsozlik, Tabiiy ofatlar xavfi, Chidamlilik va Yer; Ish o'rinlari va Taraqqiyot; Ta'lim; Ijtimoiy barqarorlik va Inklusivlik; Ijtimoiy himoya; Qashshoqlik; Boshqaruv; Moliyaviy raqobatbardoshlik va innovatsiyalar; Iqlim o'zgarishi; va Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK).

Nigara Abate (Jahon banki maslahatchisi, aloqalar bo'yicha katta mutaxassis), Mirzobek Ibragimov (Jahon banki, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha maslahatchi), Timur Axmedov (Jahon banki, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha maslahatchi), Jahon bankining mamlakatlardagi vakolatxonalarining xodimlari hamda Washington, D.C. dagi boshqa ko'plab hamkasblarga siyosiy muloqotlar turkumi davomida ko'rsatgan yordamlari uchun, shuningdek, Zo'i Environmental Network jamoasiga ushbu to'plamni ishlab chiqish va loyihalashda qo'shgan hissalari uchun alohida minnatdorchilik bildiramiz.

Biz 700 dan ortiq manfaatdor tomonlarga, jumladan, BMTTD, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), BMT atrof-muhit dasturi (BMTAMD), BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMTYelK), O'zbekiston hukumati idoralari, mahalliy hokimiyat organlari, O'zbekiston Ekologik partiyasi, hamda muloqotlarda ishtirok etib, o'z fikrlari bilan muhokamalarni boyitgan jamoatchilik vakillariga minnatdorchilik bildiramiz.

Siyosiy muloqotlar turkumi fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralarni, jumladan Qurg'oqchil hududlarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xalqaro markazi (QHQXTXM), Barqaror rivojlanish bo'yicha davlatlararo komissiya (BRDK), Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI), Iqtisodiy rivojlanish markazi, UZGIP ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat agrar universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, O'zbekiston ekologik harakati, Markaziy Osiyodagi Amerika universiteti qoshidagi Atrof-muhit va rivojlanish markazi (AMRM), Markaziy Osiyo va Kavkazdagi qishloq xo'jaligi universitetlari konsorsiumi (MOKQXUK), Markaziy Osiyo va Kavkaz Global suv hamkorligi, SunPhysics nodavlat notijorat tashkiloti, ACTED - Texnik hamkorlik va taraqqiyot agentligi va boshqalarni munozaralarda ishtirok etishga taklif qilish orqali turli nuqtai nazar va qarashlarni o'rgandi.

Ushbu to'plam Jahon bankining Markaziy Osiyodagi iqlim va atrof-muhit bo'yicha tahliliy va konsultativ dasturining bir qismidir. U NDC Support Facility va UK Aid ko'magida tayyorlangan.

## Qisqacha ma'lumot: O'zbekistonda "yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi bo'yicha siyosiy muloqotlar turkumi



So'nggi bir necha o'n yilliklarda **O'zbekistonning jadal iqtisodiy o'sishi asosan resurslarni qazib olish** hamda iqtisodiyotning tog'-kon sanoati va ishlab chiqarish tarmoqlari hisobiga ta'minlandi. Biroq, bu taraqqiyot qimmat narxga tushdi. Qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan og'ir energiya balansi, energiyani ko'p talab qiluvchi sanoat sektori va barcha tarmoqlar bo'yicha past energo-samaradorlik tufayli (samarasiz uy-joy fondi energiya bilan bog'liq issiqxona gazlari emissiyasining deyarli yarmini tashkil qiladi) hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyoti issiqxona gazlari emissiyasi intensivligi bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinda,<sup>1</sup> Evropa va Markaziy Osiyoda esa eng oldinga turadi.

iv | Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi **O'zbekiston ham iqlim o'zgarishlariga juda zaif**. O'zgaruvchan iqlim uning **tabiiy kapitali**, qishloq xo'jaligi, yer va suv unumdorligiga tahdid soladi va tabiiy ofatlar xavfini kuchaytiradi. Mamlakat iqlim o'zgarishiga zaiflik bo'yicha 191 mamlakat ichida 96-o'rinni egallaydi (**ND-GAIN 2019**). U zilzilalar hamda toshqinlarga moyil; natijada har yili o'rtacha 1,4 million kishi ulardan azoblanadi va deyarli 3 milliard AQSh dollari miqdorida zarar ko'riladi. Mintaqaviy tadqiqotlar<sup>2</sup> shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi rivojlanish muammolarining qariyb 70 foizi chuchuk suv tanqisligi bilan bog'liq. Jahon Resurslari Instituti ma'lumotlariga,<sup>3</sup> ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligi ta'siriga eng qattiq duchor bo'lgan 25 davlat qatoriga kiradi va iqlim o'zgarishi suv tanqisligini yanada kuchaytiradi. **O'tkir suv tanqisligi va yerlarning degradatsiyasi** qishloq xo'jaligi hosildorligiga va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Yaqinda O'zbekistonning ko'plab hududlari, jumladan, Toshkent, 150 yillik ro'yxatga olingan tarixda eng kuchli, misli ko'rilmagan qum-chang bo'ronini boshdan kechirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'shanda qum-chang bo'roni O'zbekiston duch kelayotgan ekologik tahdidlar salbiy ta'siri kuchayib borayotganining so'nggi dalili bo'lganini va bu "yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurati bo'yicha muhim saboq bo'lganini ta'kidlagan edi. Energiya ishlab chiqarishning "yashil" shakllariga o'tishni kechiktirish eskirgan texnologiyalarning to'xtashi va investitsiyalarning to'sib qo'yilishiga olib kelishi mumkin, undan voz kechish qimmatga tushadi va mamlakatni qimmatli eksport bozorlaridan yopib qo'yishi mumkin.

**"Yashil" o'tish O'zbekiston aholisining iqlim o'zgarishiga eng zaif qatlamlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.** COVID-19 pandemiyasi aholining zaif qatlamlari oldida turgan ko'plab muammolarning murakkab oqibatlariga yana bir zarba qo'shdi. U sog'liqni saqlash, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik halokatli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa chuqur va uzoq muddatli iz qoldirishi mumkin. Haroratning oshishi, tez-tez qurg'oqchilik, suv tanqisligining ortib borishi, cho'llanish va sho'rlanish tahdidlarining kuchayishini o'z ichiga olgan iqlim o'zgarishining prognoz qilingan oqibatlari O'zbekistonning busiz ham qashshoq hududlaridagi hayot darajasiga nomutanosib ravishda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda uy xo'jaliklari o'z daromadlarining nisbatan yuqori qismini oziq-ovqatga sarflaydi — 2016-yilda u 47,3 foizni tashkil qilgan.

<sup>1</sup> Yoqilg'i-energetika kompleksi mamlakat k. a. emissiyasining 9/10 qismini tashkil etadi (2014 yilgi ma'lumot), issiqxona gazlari emissiyasi Faktlar jadvali: O'zbekiston. <https://www.climatelinks.org/resources/greenhouse-gas-emissions-factsheet-uzbekistan>, Jahon resurslari instituti Iqlimni tahlil qilish ko'rsatkichlari vositasi (WRI CAIT) ma'lumotlar bazasi asosida

<sup>2</sup> Berndtsson, R. va Tussupova, K. 2020. "The Future of Water Management in Central Asia." Suv 12 No. 8: 2241. <https://doi.org/10.3390/w12082241>.

<sup>3</sup> Jahon resurslari institutining Aqueduct tools ma'lumotlariga ko'ra. <https://www.wri.org/insights/17-countries-home-one-quarter-worlds-population-face-extremely-high-water-stress>.

Bu rivojlanayotgan 92 mamlakat vakillik namunasidagi o'rtacha 38,6 foizdan yuqori<sup>4</sup> bo'lib, kambag'al aholini oziq-ovqat narxlarining oshishi xavfi ostida qoldiradi. Energiya ishlab chiqarish va taqsimlashni ham adolatli deb bo'lmaydi: O'zbekiston aholisining qariyb yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi, ular uzoq hududlardagi zaif energiya taqsimoti, undan noqonuniy foydalanish va yomon infratuzilma tufayli elektr energiyasi yetishmasligi va uzilishi bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar.

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining hozirgi rivojlanish modeli bo'yicha o'sish chegaralarini yengib o'tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo'lib borayotgan **jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo'lidagi noyob imkoniyatni** yaxshi tushunadi. Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayangan holda, o'z iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan Moslashuvchan, Inklyuziv, Barqaror va Samarador (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli "yashil" o'sish modeli sari yo'lga belgilash bo'yicha qadamlar tashlamoqda.

"Yashil" o'tishning bir qismi sifatida rivojlanayotgan yangi "yashil" va mavjud ish o'rinlari o'qitilgan ishchi kuchini talab qiladi va ijtimoiy inklyuzivlikni, kasbiy tayyorgarlikni, qayta malaka oshirishni va tarmoqlararo almashuvchanlikni ta'minlaydi. "Yashil" va adolatli o'tish maqsadli rag'batlantirish choralari, malaka oshirish va bandlikdagi to'siqlarni kamaytirish uchun tarkibiy islohotlarni talab qiladi. Kambag'allar va ayollar oila boshlig'i bo'lgan kabi zaif guruhlar tabiiy ofatlar, ifloslanish va iqlim o'zgaruvchanligi kabi zarbalardan nomutanosib ravishda ta'sir ko'radilar. Shuningdek, yanada barqaror modelga o'tishda eng ko'p ta'sirlanish xavfi ularning zimmasiga tushadi. Adolatli o'tishning bir qismi sifatida, ular uy xo'jaliklari miqyosida maqsadli yordam ko'rsatish orqali himoyalani kerak.

**2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston hukumati mamlakatni 2030-yilga qadar daromad darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan sanoatlashgan davlatga aylantirish bo'yicha o'z qarashlarini bayon qildi.** Unga ko'ra, iqtisodiy liberallashtirish (shu jumladan, qishloq xo'jaligida), monopoliyalarni bartaraf etish, raqobatni yaxshilash, xususiy lashtirish, narxlarni barqarorlashtirish, markazsizlashtirish va yerga egalik qilish bo'yicha islohotlarni amalga oshiriladi. Inson kapitaliga investitsiyalar mamlakatning asosan yosh aholisini samarali ish bilan ta'minlashga qaratilgan. Ular iqtisodiy tashabbus va innovatsiyalarni rag'batlantiradi hamda kelajakdagi ish salohiyatini va raqamli ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Glazgoda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konventsiyasi (BMT IO'DK) Tomonlar Konferensiyasida (TK-26) O'zbekiston hukumati 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yildagi darajadan 35 foizga kamaytirish bo'yicha zalvorli maqsadini e'lon qildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun keyingi besh yil davomida bir qancha strategik hujjat va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil oktabrdagi PQ-4477 qarori bilan 2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha Milliy strategiya ma'qullandi hamda "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha idoralararo kengash tashkil etildi.

**Keng manfaatlarga ega bo'lgan "yashil" texnologiyalarga o'tish manfaatdor tomonlarning katta qismini hisobga oladigan butun jamiyat yondashuvini talab qiladi.** Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi ITKQV, Jahon banki va MOMEM hamkorlikda "["yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi sohasidagi davlat siyosati bo'yicha muloqotlar](#)" turkumini o'tkazdilar. 2021-yil avgustidan 2022-yilning fevraligacha o'n bitta davra suhbatini birinchi marta gibril "o'flayn" va "onlayn" formatda 700 dan ortiq manfaatdor qatnashchilardan iborat guruhni birlashtirdi. Guruh tarkibiga siyosatchilar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekistonning 30 dan ortiq vazirlarlari, idoralari va mahalliy o'z-o'zini idora qilish organlarining mas'ul xodimlari, shuningdek, yetakchi milliy va xalqaro ekspertlar, fuqarolik jamiyati, ilmiy doiralar, rivojlanish bo'yicha hamkorlar va jamoatchilik vakillari kirdi.

Siyosiy muloqotlar turkumi O'zbekiston iqlim o'zgarishi bo'yicha o'z majburiyatlarini amalga oshirish va "yashil" o'sishni jadallashtirishda duch kelayotgan muammolar va imkoniyatlar bo'yicha umumiy va aniq tushunchani shakllantirishga yordam berdi. Turkumning 11 ta davra suhbatini quyidagilarga yordam berdi:

- Raqobatbardosh va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o'tish iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va moslashishni o'z ichiga olgan uzoq muddatli "yashil" o'tish strategiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerakligi haqida **yakdillikka erishish**. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning mag'lubiyatsiz variantini ta'minlashda xabardorlik va texnik salohiyatni oshirish **"yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy ustuvorliklari** hisoblanadi.
- Turli manfaatdor tomonlardan iborat guruh uchun inklyuziv, ochiq va interaktiv maydon yaratish orqali **xilma-xil istiqbollarni o'rganish**. O'zbekistonda va butun Markaziy Osiyoda hamda xalqaro rivojlanish hamjamiyati orasida, jumladan BMTTD, YeTTB, IHTT va Osiyo taraqqiyot banki (OTB), shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, akademik va ilmiy-tadqiqot institutlarining boy tarmog'idagi hamkorlik va tajribadan foydalaniladi.
- Hukumatning barcha bo'g'inlarida va xalqaro miqyosda 2021-yil noyabr oyida Glazgoda bo'lib o'tgan BMT IO'DK TK-26 da **"yashil" o'tish kun tartibini milliy rivojlanishning asosiy ustuvorligi sifatida ko'tarish**. "Yashil" iqtisodiyot O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi Rivojlanish strategiyasida birinchi marta asosiy ustuvorlik sifatida o'z aksini topgan.
- "Yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish uchun **qat'iy majburiyat, tarmoqlararo muvofiqlashtirish, umumiy qarash, mas'uliyat va muvofiqlashtirish maydonini yaratish**.
- 200 000 dan ortiq odamni qamrab olgan ijtimoiy tarmoqlarda va an'anaviy platformalarda "yashil" o'sish hamda iqlim o'zgarishiga jamoatchilikni keng miqyosda jalb qilish va xabardorligini oshirishga ko'maklashish.

<sup>4</sup> Jahon bankining iqlim o'zgarishi portali, O'zbekiston sahifasi. <https://climateknowledgeportal.worldbank.org/sites/default/files/2021-09/15838-Uzbekistan%20Country%20Profile-WEB.pdf>


Siyosiy muloqot davra suhbatlari manfaatdor tomonlarning roli va mas'uliyatini; mavjud siyosatdagi, bilimdagi va investitsion bo'shliqlarni; mamlakatning uzoq muddatli "yashil" o'tish modelini yaratish uchun zarur bo'lgan yordamni aniqlash orqali mamlakatning "yashil" o'sish strategik asosiga hissa qo'shdi. Ishtirokchilar "yashil" o'tish jarayonining borishi, masalalar va muammolarini muhokama qildilar hamda ilg'or xalqaro amaliyot hamda milliy va mintaqaviy tajribaga asoslangan investitsiyalar va siyosiy harakatlar uchun amaliy va samarali imkoniyatlarni aniqladilar. Lozim bo'lgan siyosiy harakatlar quyidagilarga qaratilgan:

- Hamkorlik va sheriklik munosabatlarini rivojlantirish uchun keng ko'lamda **manfaatdor tomonlarni jalb qilish**. Masalan, mahalliy hokimiyat organlari — mahallalar — aholining iqlim bo'yicha xabardorligini oshirish va iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlarni aniqlashda faol ishtirok etishlari mumkin. Bu juda muhim, chunki aholining eng kambag'al guruhlari iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va o'rmon yong'inlari xavfidan jiddiy xatarlarga duch kelishadi.
- Investitsiyalarni faollashtirish hamda xalqaro va innovatsion iqlimiy moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun **islohotlar va siyosat bo'yicha xabarlarini tarqatish**. Masalan, nimani "yashil" loyiha deb hisoblash mumkinligini aniqlashtirish uchun "yashil" taksonomiya ishlab chiqilishi mumkin.
- Siyosiy muloqotlar jarayonida aniqlangan **"yashil" iqtisodiyotga o'tish ustuvorliklari asosida investitsiya kiritish**. Masalan, boshqa sohalar qatorida, iqlim jihatidan optimallashtirilgan qishloq xo'jaligiga, landshaftlarni kompleks tiklashga, quyosh energiyasida ishlaydigan nasosli sug'orish tizimlariga va tiklanadigan energiyaga investitsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Jahon banki guruhi O'zbekiston hukumatinin ilgarigidek ishonchli hamkori bo'lib qolishga intiladi. Jahon banki o'zining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan, O'zbekistonda "yashil" iqtisodga o'tishni qo'llab quvvatlashga alohida e'tibor qaratadigan [Mamlakat bilan hamkorlik yangi asos dasturi \(MHD\)](#) doirasida, shuningdek, rivojlanish bo'yicha hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- elektroenergetika sektorini uglerod neytralligiga o'tkazishni jadallashtirish (energetika sektori ulushiga umumiy issiqxona gazlari emissiyasining 80 foizi to'g'ri keladi);
- asosiy sanoat tarmoqlariga (konchilik, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish kabi) "yashil" investitsiyalarni jalb qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha rag'batlar yaratish uchun huquqiy va me'yoriy muhitni yangilash va aylanma iqtisodiy harakatlar rejasi yordamida resurslardan foydalanishni optimallashtirish;
- raqamli platformalar, tiklanadigan energiya va elektron tijorat kabi yangi past uglerodli texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash;
- landshaftni tiklashga, suv xavfsizligi va iqlimga optimallashtirilgan qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritish;
- shaharlar chidamliligiga investitsiya kiritish va tabiiy ofatlarga chidamlilikni oshirish.

Bu harakatlar O'zbekistonni Markaziy Osiyoda "yashil" o'sish kashshofiga aylantirishi va pirovardida butun mintaqa uchun "yashil" kelajakni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Ushbu to'plamda taqdim etilgan o'n bitta siyosiy muloqot davra suhbatlari bo'yicha ma'lumot Yevropa va Markaziy Osiyodagi boshqa ko'plab mamlakatlarni O'zbekistonning ushbu kun tartibidagi yetakchiligiga ergashishga ilhomlantirishi kerak.





O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va iqlim o'zgarishi muammolarini hal etish bo'yicha siyosiy muloqotlar uchun sharoitlar yaratish



1-sessiya 20.08.2021 Toshkent, O'zbekiston

2021-yil avgustidan 2022-yil yanvarigacha Toshkent shahrida Jahon banki va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) tomonidan O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikda yuzmayuz uchrashuvlar va video muloqotlar formatida [siyosiy muloqotlar](#) tashkil etildi. Muloqot ishtirokchilari iqlim bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi va mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini ko'rib chiqdilar. Muloqotlar O'zbekiston va Markaziy Osiyoda tarmoqlararo va mavzuli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdilar.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (ITKQV) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va Jahon banki bilan hamkorlikda "yashil" iqtisodiyotga o'tish doirasida olti (6) ta ustuvor yo'nalish va o'zaro bog'liq masalalarning uch (3) ta bloki belgilandi.

## "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlari



O'zbekiston butun mamlakat aholisini uzoq muddatli jarayonga jalb etgan xolda iqtisodiyotning uglerod sarfini kamaytirish va tabiatdan foydalanishni barqaror rivojlantirishni ko'zlamoda. Bu iqtisodiyotni iqlim o'zgarishi oqibatlariga tayyorlaydi, ortib borayotgan suv tanqisligi bilan kurashishga yordam beradi, chunki Orol ekologik falokati iqlim o'zgarishining oqibatlarini faqat kuchaytirayapdi. Mamlakat ekotizimlar va hayvonot dunyosini asrash va saqlab qolish, suv va yerdan samarali foydalanish, issiqxona gazlari chiqishini kamaytirishni davom ettiradi.

### Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari qo'mitasidan, O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazidan, O'zbekiston Ekologik partiyasidan, Jahon bankidan, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM)dan vakillar so'zga chiqdilar.



# O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi

Hukumat Iqlim o'zgarishi bo'yicha strategiyasini va [O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga](#) oshirishda mamlakatning ekologik barqarorligiga erishishni maqsad qilib qo'ygan.

## Ba'zi tadbirlar va maqsad ko'rsatkichlari



- ✓ 2030 yilga kelib yalpi ichki mahsulot (YaIM) birligiga nisbatan issiqxona gazlari chiqishini 2010 yildagi bazaviy ko'rsatkichga solishtirganda 35 foizga kamaytirish
- ✓ Energiya samaradorligini 20 foizga oshirish uchun sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda yanada toza va xavfsiz sanoat texnologiyalarini joriy etish



- ✓ Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'oriladigan yerlarni 1 million gektargacha kengaytirish va oziq-ovqat ekinlari hosildorligini 20–40 foizga oshirish
- ✓ Yer degradatsiyasini nolga tushirish (neytrallikka erishish)



- ✓ “Yashil” iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash va ularning salohiyatini oshirish, ta'limga investitsiya kiritish va yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan ilmiy hamkorlik qilish



- ✓ Ishlab chiqarilgan elektr energiyasining umumiy hajmida tiklanuvchi energiya manbalari (TEM) ulushini 25 foizdan ko'proqqa oshirish, shu jumladan elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi quyosh va shamol stansiyalari ulushini 25 foizga yoki 8 GVtga yetkazish



- ✓ 100% aholi va sanoat tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish imkoniyatini yaratib berish
- ✓ Davlat investitsiyalari va xaridlari sohasiga xalqaro va milliy “yashil” mezonlarni tadbiiq qilish
- ✓ Binolarning energiya samaradorligini sertifikatlash tizimini joriy etish



- ✓ Orol dengizi ekologik halokati oqibatlarini yumshatish

## Muhokama va xulosalar

“Yashil” o'sish yo'lida muvaffaqiyatli siljish uchun quyidagilar talab qilinadi:


- Uzoq muddatli strategiya va yo'l xaritalarini ishlab chiqish;
- Siyosiy irodaning mavjudligi va malakali mutaxassislarini jalb qilish;
- Tarmoqlararo islohotlarni amalga oshirish va tegishli davlat va nodavlat subyektlarining iqtisodiy siyosatlarini muvofiqlashtirish;
- Tarmoqlararo institutsional va normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;
- Iqtisodiy modellashtirish va tahlil qilish maqsadlarida atrof-muhit va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ma'lumotlardagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- Parij kelishuvi asosidagi majburiyatlar doirasida iqlim bo'yicha sa'y-harakatlar va issiqxona gazlari chiqishini nazorat qilish bo'yicha monitoring olib borish va hisobot berish;
- Milliy va xalqaro tashkilotlar tomonidan “yashil” o'tish va pandemiyadan keyin “yashil” tiklanish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;
- “Yashil” o'tish bo'yicha tadbirlarda fuqarolik jamiyati, ilmiy doiralar, o'rta va kichik biznes korxonalarini va keng jamoatchilik, shu jumladan, yoshlarning ishtirok etishi;
- Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolari haqidagi axborotlarga ega bo'lishni ko'tarish uchun va yoshlarni iqtisodiyotning “yashil” tarmoqlarida ishlashga tayyorlash uchun maktablar va oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish.

Jahon banki va xalqaro hamkorlar ko'magida O'zbekiston hukumati kelgusi siyosiy muloqotlarning mavzulariga mos keladigan “yashil” o'tish yo'nalishlarini belgilab oldi:

1. Pandemiyadan keyingi tiklanish yo'llari va “yashil” o'sish kontseptsiyasi;
2. Sanoat va iqtisodiyotning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishi;
3. Past uglerodli, barqaror va inklyuziv urbanizatsiya;
4. Iqlim xatarlari va imkoniyatlarni baholash: 2050 yilgacha uzoq muddatli strategiya;
5. Tabiiy ofatlarga javob choralari va Iqlimga chidamlilikni oshirish;
6. Tarmoqlararo tadbirlarni joriy qilish orqali iqlim barqarorligini rivojlantirish: tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
7. Adolatli o'tish: iqlim o'zgarishi va siyosatdan eng ko'p zarar ko'rgan odamlar va joylarga yordam berish;
8. Qulay siyosiy muhit: iqlim o'zgarishi va “yashil” o'sish sohasidagi islohotlar, rejalashtirish va huquqiy hamda siyosiy jarayonlar;
9. “Yashil” moliyalashtirish va innovatsion hamda samarali “yashil” davlat investitsiyasini safarbar qilish;
10. Iqlim o'zgarishi va “yashil” o'sishning kun tartibini ilgari surish uchun yo'l xaritasini ishlab chiqish va institutsional shart-sharoitlarni yaratish.


## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Pandemiyadan keyingi "yashil" tiklanish: "yashil" iqtisodiyotga o'tish kontsepsiyasi



2-sessiya 09.09.2021 Toshkent, O'zbekiston

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan issiqxona gazlari nisbiy chiqishining yuqoriligi va suvdan foydalanish samaradorligining pastligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy himoyasizlik tabiiy resurslarga jiddiy qaramlik va iqlim o'zgarishi ta'sirida kuchaymoqda. Tabiiy va energetika resurslaridan barqaror va samarali foydalanishga asoslangan yanada "yashil" iqtisodiy o'sish ifloslanish va issiqxona gazlari chiqishini minimallashtiradi, tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshiradi. Pandemiya iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni yanada kuchaytirdi. "Yashil" investitsiyalar, jumladan, "yashil" ish o'rinlarini yaratish, havo ifloslanishini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish va shaharlarni modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining pandemiyadan keyingi tiklanish davrida karbonsizlanishga hissa qo'shishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasi hukumati 2030 yilga borib aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni hozirgi 1700 AQSh dollaridan 4200 AQSh dollarigacha oshirish vazifasini qo'ydi. Xalqaro rivojlanish bo'yicha hamkorlar O'zbekistonga kam uglerodli rivojlanish loyihalarini tadbiiq qilish, iqlimga chidamlilikni oshirish va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishda yordam bermoqdalar. Rivojlanish loyihalari uchun umumiy byudjet 1 milliard AQSh dollaridan oshadi. Jahon banki O'zbekistonning 2050 yilgacha mo'ljallangan uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligi hamda suv ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilishni moliyalashtirish, tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish va energiya samaradorligini oshirish orqali O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga ko'maklashadi. "Iqtisodiy Rivojlanish uchun Samarali Boshqaruv" (Effective Governance for Economic Development, EGED) dasturi haqiqiy ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar va qarorlar qabul qilish jarayonlarini joriy etishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining kichik va o'rta korxonalari "Yashil" Iqtisodiyotni Moliyalashtirish Mexanizmi (Green Economy Financing Facility, GEFF) doirasida [2019-2030-yillarga mo'ljallangan "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini](#) amalga oshirishda ishtirok etmoqdalar.


Jahon banki O'zbekiston hukumati "yashil" iqtisodiyotga o'tish doirasida quyidagilar vositasida qo'llab-quvvatlaydi:



- ✓ "Yashil" o'sish bo'yicha kontsepsiya hujjatlarini ishlab chiqish
- ✓ Siyosiy muloqotlar turkumini o'tkazish
- ✓ Xalqaro konferensiyani tashkil etishdagi ko'mak




- ✓ Normativ-huquqiy hujjatlardagi bo'shliqlarni va yetishmovchiliklarni institutsional baholash va tahlil qilish



- ✓ 2050-yilgacha mo'ljallangan "yashil" o'sish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishda ishtirok etish


### Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Jahon banki, BMTTD O'zbekiston, "Ekologik toza Farg'ona uchun" NNT, "Ekomaktab" ekologiya-resurs markazi NNT, Toshkent davlat agrar universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti vakillari so'zga chiqdilar.




#### Tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish

- ✓ oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun barqaror qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlash
- ✓ qishloq xo'jaligi, tabiatdan foydalanish sektori va ekoturizmida ish o'rinlarini yaratish
- ✓ suv sarfini kamaytirish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish
- ✓ qishloq xo'jaligi va chorvani o'tlatish tufayli yer va o'rmon degradatsiyasini qisqartirish




#### Tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish

- ✓ Orolbo'yida cho'llanish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etish
- ✓ gidrologik, meteorologik va iqlim xizmatlarini yaxshilash orqali xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni kuchaytirish
- ✓ infratuzilmaning tabiiy ofatlar ta'siriga chidamliligini oshirish uchun tabiiy va texnik yechimlarni integratsiyalash
- ✓ iqtisodiyotning, uy xo'jaliklarining va korxonalarining xavfli iqlim hodisalariga moliyaviy chidamliligini oshirish



#### Sanoat va iqtisodiyotning "yashil" va past uglerodli rivojlanishi

- ✓ energiya sarfini qisqartirish, issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish bilan birga iqtisodiyotning o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun energiya balansini diversifikatsiya qilish
- ✓ foydali qazilmalarni qazib olishning ekologik ta'sirini kamaytirish bo'yicha jahon ilg'or amaliyotlarini joriy etish
- ✓ mahsulotlarning xizmat muddatini uzaytirish uchun aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish




#### Innovatsiyalar va samarali "yashil" investitsiyalar

- ✓ "yashil" o'sishni rag'batlantirish uchun texnik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash vositalarini joriy etish
- ✓ global investitsiyalarning afzalliklaridan foydalanish va "yashil" o'tish jarayonida aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish



#### Barqaror va inklyuziv urbanizatsiya

- ✓ shaharlarning ixchamroq tuzilishiga va inklyuziv urbanizatsiyaga o'tish
- ✓ shaharlarning bazaviy va uy-joy kommunal xizmatlariga bo'lgan imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish va ularning sifatini oshirish
- ✓ tirbandlikni qisqartirish, avtomobillar sonini va avtoturargohga bo'lgan talabni pasaytirish hamda zararli gazlar chiqishini kamaytirish uchun ekologik va integratsiyalashgan shahar transporti rivojlanishiga ko'maklashish
- ✓ atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish uchun chiqindilar chiqarishini kamaytirish va shahar chiqindilarini boshqarish tizimini takomillashtirish
- ✓ aholi salomatligini yaxshilash va sog'liqni saqlash xarajatlarini pasaytirish uchun shahar havosining ifloslanishini kamaytirish
- ✓ qadimgi lpak yo'li bo'ylab barqaror turizmni rivojlantirish



#### "Yashil" o'tishdan eng ko'p ta'sir ko'rgan odamlar va joylarga yordam berish

- ✓ past malakali mehnatkashlar va mamlakatning chekka hududlari aholisi uchun jozibali ish o'rinlari yaratish, shuningdek, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash
- ✓ aholining eng zaif qatlamlarini "yashil" o'tish ta'siridan himoya qilish tizimlarini yaratish

## Muhokama va xulosalar

- Pandemiya iqlim o'zgarishi oqibatlarini chuqurlashtiradi;
- Fuqarolik jamiyati tashkilotlari "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida asosiy manfaatdor tomonlar hisoblanadi;
- Ekologik ta'lim "yashil" o'zgarishlarning tamal toshidir;
- O'zbekistonning yanada samarali iqtisodiyot sari olg'a siljishi yer boshqaruvi / mulkchilik va energetika sohasini isloh qilishiga bog'liq;
- "Yashil" investitsiyalar institutsional, ta'lim va siyosat islohotlari bilan birgalikda yangi "yashil" ish o'rinlarini yaratish, havo ifloslanishini kamaytirish, tiklanadigan energiya manbalarini yuqori darajaga ko'tarish va pandemiyadan keyingi tiklanishda karbonsizlashni jadallashtirish imkonini beradi.
- Atrof-muhit va uglerod soliqlari emissiyalarni kamaytirishning muhim vositalaridir

## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Sanoat hamda energetikaning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini qo'llab-quvvatlash

3-sessiya 23.09.2021 Toshkent, O'zbekiston



## Energetika va sanoatni karbonsizlantirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi (O'zR) bozor iqtisodiyoti tizimini barpo etish va mamlakatni iqtisodiy hamkorlik uchun ochish bo'yicha siyosiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Energetika sohasi O'zbekiston Respublikasining hukumati uchun modernizatsiya qilinishi kerak bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Energetika sektorini transformatsiya qilishning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: energetika davlat korxonalarini faoliyatining yuqori ekspluatatsion va moliyaviy ko'rsatkichlarini ta'minlash, infratuzilma muammolarini hal qilish, sektorni qayta tuzish va raqobatbardosh bozorga o'tish, toza energiyaga o'tishda energiya qiymatini hosil qiluvchi zanjirlarni karbonsizlantirish, tiklanadigan energiya manbalaridan (TEM) foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga ko'maklashish, shuningdek, xususiy sektorni jalb qilish va sohani institutsional va bozor tuzilmasini takomillashtirish.

Yangilangan Milliy darajada aniqlangan hissa (MDAH)ga mos ravishda O'zbekiston Respublikasi 2030 yilgacha YaIM birligiga nisbatan solishtirma emissiyani 2010 yildagi darajasidan 35 foizga qisqartirish bo'yicha o'z majburiyatlarini oshirdi. Milliy darajada aniqlangan O'zbekiston hissasida o'zgarishlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun tarkibiy islohotlarning muhim roli e'tirof etilib, energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasidagi chora-tadbirlarga iqtisodiyot nuqtai nazaridan ham, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha ham katta ahamiyat beriladi, aynan:



1. samarali va kam uglerodli texnologiyalarni joriy etish asosida energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni modernizatsiya qilish;



2. tiklanadigan energiya manbalarini keng miqyosda joriy etish (quyosh, shamol, biogaz texnologiyalari, kichik hamda mikro-GESlar va boshqalar);



3. energiyani ko'p talab qiluvchi sanoat, qurilish va binolarga energiyani tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish;



4. tabiiy gaz sizib chiqishini bartaraf etish va neft-gaz sohasida gazni mash'al qilib yoqib qo'yishdan voz kechish;



5. elektr energiyasini uzatish va taqsimlash tarmoqlaridagi yo'qotishlarni kamaytirish.

## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish markazi NNT, Toshkent Davlat agrar universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutidan vakillar so'zga chiqdilar.

Rivojlanish bo'yicha xalqaro hamkorlar, jumladan, Jahon banki guruhi (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi (KTIKA)), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqalar — O'zbekiston hukumatining energetika sohasini karbonsizlashtirishga qaratilgan islohotlari va investitsiyalarini qo'llab-quvvatlamodalar. Shu munosabat bilan amalga oshirilayotgan tarmoq islohotlari, energiya samaradorligi va elektr transport tarmog'i samaradorligini oshirish tashabbuslari bilan bir qatorda Jahon banki guruhi mamlakatdagi birinchi fotoelektr stansiyasi (FES), integral elektr stansiyasi (IES) va O'zbekistonda quyosh elektr energiyasi generatsiyasini kengaytirishdagi tarmoq loyihasi — quvati 100 MVt bo'lgan mustaqil elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi "IES Nur Navoiy" ni (umumiy quvati 1000 MVt bo'lgan yanada yirik loyiha doirasida) xarid qilish, jumladan tanlov savdolari o'tkazish bo'yicha ishlarni qo'llab-quvvatlamodalar. Ushbu tadbirlar O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirish kontseptsiyasiga muvofiq Jahon bankining Texnik yordam va kafolatlar dasturi (WB Technical Assistance and Guarantees) hamda XMK maslahat va moliyalashtirish dasturi (IFC Advisory and Financing) doirasida amalga oshirilmoqda, bu esa 2030 yilga kelib sof elektr generatsiyasi hajmini 16 GVtga, shu jumladan quyosh va shamol qurilmalaridan mos ravishda — 7 GVt va 5 GVt ga oshirishni nazarda tutadi. Yaqinda Jahon banki O'zbekiston Respublikasi hukumatiga ekologik toza energiyaga o'tish va iqlim sohasidagi maqsad ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha strategiyalar, siyosatlar, chora-tadbirlar hamda investitsiyalar bo'yicha tavsiyalar berish maqsadida energetika sektorini karbonsizlantirish stsenariylarini kompleks baholash tashabbusi bilan chiqdi.

## Aylanma iqtisodiyotni joriy qilish sari qadamlar

O'zbekiston uchun aylanma iqtisodiyotni rivojlanish muammolarini hal etish, iqtisodiyotni "yashil"lashtirish bo'yicha milliy va tarmoq strategik maqsadlariga erishish yo'lidir. Aylanma iqtisodiyot bu iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, chiqindilar va atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog'liq global muammolarning tizimli yechimlari to'plamidir. Tiklanadigan energiya manbalari va materiallarga o'tish orqali qo'llab-quvvatlanadigan aylanma iqtisodiyotning markazida uchta asosiy tamoyil mavjud: chiqindilar va ifloslanishni bartaraf etish, tovarlar va materiallarning aylanishi (ularning eng yuqori qiymati bo'yicha) va tabiiy tizimlarni qayta tiklash.

O'zbekistonda aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida Koreya "Yashil" o'sish trust fondi (Korea Green Growth Trust Fund, KGGTF) moliyaviy ko'magida 2020-yilning mart oyidan boshlab Jahon banki tomonidan mamlakatda maqsadli Texnik ko'mak (TK) dasturi amalga oshirilmoqda. Dastur analitik ishlanmalarni, salohiyatni oshirish bo'yicha tadbirlarni va aylanma iqtisodiyotni "yashil" iqtisodiyotga yo'l sifatida ilgari surish uchun bilimlar almashinuvini o'z ichiga oladi. Ushbu TK dasturi tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat chiqindilari hajmini kamaytirish, issiqxona gazlari chiqishi va ifloslanishni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni chuqur baholash maqsadida "qishloq xo'jaligi — oziq-ovqat" ishlab chiqarish-sotish zanjiriga qaratilgan. Ayni paytda davlat organlari bilan birgalikda agrosanoat tovarlari ishlab chiqarish-sotish zanjiri doirasida aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo'yicha harakatlar rejasi ustida ish olib borilmoqda.



## Muhokama va xulosalar

- Energiya va sanoat tarmoqlarida kam uglerodli rivojlanishining ustuvorligini hisobga olgan holda, TEM dan foydalanish va energiya samaradorligini oshirish bilan bog'liq tarmoq islohotlari qo'shimcha ravishda toza energiyaga o'tish va karbonsizlash choralari doirasida elektr energiyasi sektorini, binolarni, nasosli sug'orishni, sanoat va kommunal isitishni qamrab olishi mumkin;
- Institutsional islohotlar, energetikada, suv ta'minotida, qishloq xo'jaligida va kommunal chiqindilarni boshqarish sohasida xususiy sektor va raqobatning o'sib borayotgan o'rnini va davlat tomonidan tartibga solish hamda nazoratni optimallashtirish bilan birgalikda "yashil" iqtisodiyotga jadal o'tishga yordam beradi;
- "Yashil" o'tish jarayonidagi o'zgarishlarni hisobga olish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yumshatish uchun zaif guruhlar va shaxslarga e'tiborni qaratish zarur. Uy xo'jaliklariga manzilli yordam ko'rsatish chora-tadbirlari sanoat korxonalarini manzilli qo'llab-quvvatlash kabi muhim ahamiyatga ega;
- Energetika sohasida "yashil" o'tish vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: energiya samaradorligi standartlari va reglamentlarini (normalarini) joriy etishni rag'batlantirish maqsadida tarif siyosati va subsidiyalash tizimini isloh qilish, TEM uchun "yashil" tarif tizimini va kam uglerodli transport vositalariga subsidiyalarni joriy etish;
- Energetika sohasida institutsional va huquqiy islohotlarni ilgari surishda hamkorlarning moliyalashtirish, kafolatlar, texnik yordam, maslahat va salohiyatni oshirish ko'rinishidagi rivojlanish bo'yicha qo'llab-quvvatlashlari muhim rol o'ynaydi.



## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Kam uglerodli, barqaror va inklyuziv urbanizatsiyani qo'llab-quvvatlash





4-sessiya 07.10.2021 Toshkent, O'zbekiston




## Barqaror urbanizatsiya

O'zbekistonda urbanizatsiya shaharlarning kengayishiga olib kelmoqda, bu boshqa mamlakatlar va shaharlarga taqqoslaganda ancha tez kechmoqda. Shaharlar aholi zichligi kamayib bormoqda, shahar atrofi yo'nalishlari uzaymoqda va aholining o'z avtomobilida yurish darajasi oshib bormoqda, bu esa birgalikda gaz holatidagi chiqindilar va atrof-muhit ifloslanishining ko'payishiga olib keladi. Shaharni rivojlantirishning hozirgi modeli shahar infratuzilmasiga sarflanadigan xarajatlarning oshishiga va shahar atrofidagi ekin maydonlarining qisqarishiga olib keladi. Mamlakat aholisining atigi yarmi chiqindilarni yig'ish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, sust boshqaruv tufayli shahar chiqindilari metan emissiyasining 8 foizini tashkil qiladi va qattiq maishiy chiqindilar chiqarilishi shu tarzda davom etsa, 2050-yilga qadar u ikki baravar ko'payishi kutilmoqda. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi sababli shahar aholisi va infratuzilma obyektlari jazirama issiqdan va chang bo'ronlaridan tobora ko'proq aziyat chekmoqdalar.

O'zbekiston shaharlari oldidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

-  Maydonning tez kengayishi va shahar qurilishi zichligining kamayishi
-  Shaxsiy avtomobilga ega bo'lishning o'sib borishi va transport chiqindilari
-  Shahar chiqindilari va metan chiqishi hajmining o'sishi
-  Jazirama issiqlik, sel kelishi va chang bo'ronlarining shahar muhiti va aholisiga ta'siri

O'zbekiston hukumati va Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (OIIB) kabi xalqaro rivojlanish hamkorlari O'zbekistondagi bir qancha o'rta shaharlarning "yashil" o'tish borasidagi sa'y-harakatlarini, jumladan, binolarni modernizatsiya qilish, yashil maydonlar, jamoat transporti, shahar suv va energetika infratuzilmasini qo'llab-quvvatlamoda. Bu ish, shuningdek, muhim milliy darajadagi islohotlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi: yerlarni xususiyashtirish, shaharsozlik tizimini isloh qilish, mahalliy hokimiyatlarni mustahkamlash va boshqalar.



O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi (2021-yil) mamlakat shaharlarini rivojlantirishni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatdir. 2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirish strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmoni) zamonaviy shaharsozlik normalari va tarmoq innovatsiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. 2022-yilda O'zbekiston

## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Jahon banki vakillari so'zga chiqdilar.


hukumati mamlakat shaharlarini rivojlantirish bosh rejalarini, shu jumladan, yashil zonalarini va ularning hududida chiqindilarni boshqarish sxemalarini yangilashni rejalashtirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunga qadar Toshkent shahridagi istirohat bog'lari soni 23 ta obyektga, ko'kalamzorlar maydoni esa aholi jon boshiga 5,5 m<sup>2</sup> ga yetdi. "Yashil muhit" umum milliy loyihasi doirasida shahardagi yashil maydon zonalarini sezilarli darajada kengaytirish nazarda tutilgan.

## Toshkent shahrining ekologik rivojlanishi, xatarlari va barqarorligi

Yuqori emissiya stsenariysi bo'yicha, [hisob-kitoblarga ko'ra](#), iqlim o'zgarishi natijasida, asrning oxiriga kelib Toshkent shahrida o'rtacha havo harorati 2.7–5.7°C ga ko'tarilishi mumkin, bu esa, tegishli choralar ko'rilmagan taqdirda, shahar aholisi yashash sharoitlarining yomonlashishiga, energiya tarmoqlari va chiqindilarni boshqarish tizimlarining ortiqcha yuklanishiga olib kelishi mumkin. Yanada kuchli yog'ingarchiliklar katta va kichik miqyosdagi shahar suv toshqinlariga sabab bo'lishi mumkin. Zilzilalar Toshkent shahri va O'zbekistonning boshqa shaharlari uchun potentsial xavf tug'diradi, shuning uchun binolar, shahar kommunikatsiyalari va infratuzilmalarni loyihalash ularning barqarorligini ta'minlashi kerak.

Hozirgi vaqtda jamoat transportining past darajada rivojlangani tufayli ko'chalarda avtotransportlar tirbandligi yuzaga keladi, bunda hosil bo'ladigan zararli chiqindilar, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, katta shaharlardagi zararli chiqindilar umumiy hajmining 80 foizini tashkil qiladi. Kuzgi barglarni ochiq havoda yoqish va qattiq yoqilg'i bilan individual isitish amaliyoti shahar havosida mavsumiy ifloslantiruvchi moddalar hosil qilib, aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiladi.


Toshkent shahri va O'zbekistonning boshqa yirik shaharlari oldidagi asosiy muammolar:



✓ Shaharning rejadan tashqari kengayishi emissiyalarning o'sishiga va shaharlarning iqlim zaifligiga olib keladi



✓ Shahar aholisiga va infratuzilmasiga ta'sir qiladigan ekstremal obhavo hodisalari



✓ Zilzilalar xavfi



✓ Jamoat transporti tizimlari rivojlanishini shaharlarning o'sish sur'atlaridan ortda qolishi

Toshkent Markaziy Osiyoning birinchi yirik shahri bo'lishi hamda O'zbekistonning boshqa shaharlari va qo'shni davlatlarni ilhomlantiruvchi tizimli shaharsozlik strategiyasi asosida ish olib boruvchi yetakchi shaharlar guruhiga qo'shilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni) samarali amalga oshirish bilan shahar transportining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish mumkin, bunda atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqishini 10 foizga qisqartirish, jamoat transportining 80 foizini tabiiy gaz va elektr energiyasiga o'tkazish hamda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan va import qilinadigan yoqilg'ining sifat standartlarini oshirish hisobiga chiqindilarni kamaytirish nazarda tutilgan. Zilzilaga chidamli ishonchli qurilish texnologiyalari shahar binolarining zichligini oshirish imkonini beradi.

## Muhokama va xulosalar

- O'zbekiston hukumati va davlat organlari tomonidan shaharlarda, shaharlar atrofi yashil hududlarni barpo etish va kengaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda va buning uchun yetarli mablag' ajratilmoqda;
- Shaharlarda yashash sharoitlari va butun O'zbekiston bo'ylab shaharlar muhiti yaxshilanmoqda, qo'shimcha maqsadli chora-tadbirlar shaharlarning iqlim barqarorligini oshirish, urbanizatsiya jarayonida "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va shaharlarda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish imkonini beradi;
- Ilmiy jihatdan Markaziy hududlarda qurilgan shaharlarning zichligini oshirish shahar infratuzilmasini, shu jumladan ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini, jamoat transporti yo'llarini, avtomobil yo'llarini va yashil maydonlarni optimallashtirishga yordam beradi;
- O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish Kontseptsiyasi (Loyiha) va O'zbekistonning yirik va o'rta shaharlarining bosh rejalarini yangilash bo'yicha vazifalar keyingi maqsadli harakatlar uchun yaxshi asos yaratadi;
- 2019–2028 yillarga mo'ljallangan chiqindilarni boshqarish bo'yicha strategiya mintaqaviy yondashuvga o'tishda shahar chiqindilarini yig'ishni optimallashtirish va boshqaruvni yaxshilashga qaratilgan. Chiqindilarni boshqarish operatsiyalar, moliyalashtirish, qonunchilik, monitoring va ijro etish, atrof-muhitni boshqarish va barcha aholi uchun uzoq muddatli barqarorlikka erishishga qaratilgan ijtimoiy inklyuziya bo'yicha barqarorlikni hisobga olgan holda kompleks tarzda hal qilinishi kerak.



## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar va imkoniyatlar: 2030-yilgacha bo'lgan iqlim strategiyasi loyihasidan 2050-yilgacha uzoq muddatli karbonsizlanish strategiyasiga



5-sessiya 14.10.2021 Toshkent, O'zbekiston

## "Yashil" o'sish ustuvorliklari





O'zbekiston hukumati tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, kam uglerodli energetika, ifloslanish darajasini pasaytirish, tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishi oqibatlariga tayyor turishga asoslangan iqtisodiy o'sish modeliga intiladi. Rivojlanish bo'yicha xalqaro hamkorlar O'zbekistonga 2030-yilgacha "yashil" o'tish strategiyasini amalga oshirishda va 2050-yilgacha iqtisodiyotni karbonsizlash bo'yicha uzoq muddatli istiqbolni ishlab chiqishda yordam beradi. "Yashil" o'sishning kelishilgan ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ aholini muhofaza qilish, zarar ko'rgan hududlar, aholi guruhlari va iqtisodiyot tarmoqlariga moliyaviy va boshqa favqulodda yordamlar ko'rsatish orqali **tabiiy ofatlarga tayyorlik va iqlim o'zgarishiga chidamlilik**;
- ✓ bozor islohotlari, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi inklyuziv siyosat, xususiyl sektorini tegishli jarayonlarga jalb qilish orqali **tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish**;
- ✓ chiqindilarni kamaytirish, korxonalarni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish orqali **sanoat va iqtisodiyotni "yashil" rivojlantirish**;
- ✓ iqtisodiyot tarmoqlarining "yashil" o'tishini qo'llab-quvvatlash uchun **"yashil" investitsiyalar va innovatsiyalar**;
- ✓ **barqaror va inklyuziv urbanizatsiya hamda "yashil" iqtisodiyotga o'tishdan eng ko'p zarar ko'rgan aholi va hududlarni qo'llab-quvvatlash**, jumladan kompetentsiyalarni rivojlantirish va "yashil" ish o'rinlarini yaratish.

## Iqlim monitoringi va muhofazasi bo'yicha O'zbekistonning majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi (O'zGidromet) tomonidan 87 ta meteorologik stansiyalar tarmog'ida iqlim monitoringi olib borilmoqda. Jahon banki va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) CAMP4ASB loyihasi bo'yicha O'zGidrometning kuzatuv tarmog'i 50 ta avtomatlashtirilgan stansiya bilan yangilandi, Moslashuv Jamg'armasi loyihasi doirasida yana 10 ta stansiya o'rnatildi. O'zbekistonda yerga yaqin havo haroratining oshishi har o'n yillikda 0,3°C ni tashkil qiladi. Global miqyosda issiqxona gazlari chiqishining qaysi stsenariysi ustun bo'lishiga qarab, joriy asrda O'zbekiston iqlimi yana 1,5–3,0°C va undan ko'proq isishi mumkin.

O'zbekistonda iqlim o'zgarishining kuzatilayotgan va prognoz qilinayotgan oqibatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓  O'rtacha va maksimal haroratning oshishi
- ✓  Yog'ingarchiliklar intensivligining oshishi hamda sel va toshqinlarga moyil bo'lgan hududlarning ko'payishi
- ✓  Qor qoplami maydoni va davomiyligining o'zgarishi, daryo oqimining o'zgarishi
- ✓  Qurg'oqchilik miqyosi va intensivligining oshishi

## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, O'zbekiston Ekologik partiyasi va Jahon banki vakillari so'zga chiqdilar.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar tashkilotining iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konventsiyasi (BMT IO'DK) va Parij bitimi ishtirokchisi sifatida issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyatini olgan. BMT IO'DK Tomonlar Konferensiyasining 26-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi 2030-yilga borib iqtisodiyotning uglerodga bo'lgan talabi va YIM birligiga to'g'ri keladigan chiqindilarni 35 foizga qisqartirish bo'yicha yangi, yanada salmoqliroq maqsadli ko'rsatkichlarni e'lon qildi. O'zGidromet Konvensiyaning muvofiqlashtiruvchi organi bo'lib xizmat qiladi va issiqxona gazlarini inventarizatsiya qilish bo'yicha ekspert guruhining ishiga rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha iqlim o'zgarishi bo'yicha strategiyasi loyihasi ishlab chiqilib, 24 ta vazirlik va idoralar tomonidan ma'qullandi. Ushbu strategiya yaqin vaqtda tasdiqlanadi. "Yashil" iqlim jamg'armasi (YIJ) ko'magida suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlashga, shaharlar atrof-muhitiga va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishga alohida e'tibor beradigan iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha harakatlarning milliy rejasini ishlab chiqish boshlandi.

## Uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish

Jahon banki O'zbekistonni 2050 yilgacha karbonsizlash bo'yicha uzoq muddatli istiqbolli qarash va strategiyani ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlamogda. Chilandagi shunga o'xshash sa'y-harakatlar — vazifalarni belgilash, maqsadli ko'rsatkichlar, strategiyani shakllantirish maqsadida keng miqyosli manfaatdor tomonlar ishtirokida taxminan bir yarim yil davom etdi. Chili strategiyasini ishlab chiqishda issiqxona gazlari chiqishi bo'yicha prognozlar, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida ularni qisqartirish imkoniyatlari va Parij kelishuvi bo'yicha majburiyatlar hisobga olindi. Qo'shni Qozog'istonda ko'mir qazib olishga va energetikaga chiqindilarining taxminan 50 foizi to'g'ri keladi, ammo mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar tufayli ko'mir yoqilg'isidan tezda voz kechish muammoli xol.

Uglerod neytralligi maqsadlariga erishish juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. O'zbekistonda energiyaga bo'lgan talab jadal o'sib borayotganini hisobga olib, Jahon banki O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligini qo'llab-quvvatlash tashabbusi bilan chiqdi, bunda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va boshqa davlat organlarini jalb etib energetika sektorini karbonsizlantirish bo'yicha strategiya ishlab chiqildi. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) 2050-yilga qadar nol emissiya bilan (chiqindisiz) elektr energetikasini rivojlantirishning yo'l xaritasi ni modellashtirish va tayyorlashda yordam bermoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Tiklanadigan energiya to'g'risida" gi qonun va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi qonun butun mamlakat bo'ylab toza energiyani joriy etish uchun yangi me'yoriy-huquqiy bazani yaratdi. Transport energiya resurslari iste'molchisi va O'zbekiston havosini ifloslantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Germaniya va Shveysariya tomonidan moliyalashtirilgan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YIHT) ning yangi loyihasi doirasida texnik-iqtisodiy asoslash ishlari olib borilib, O'zbekistonda transport sohasini ekologik tozaroq qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konventsiyasiga (2021) muvofiq tayyorlangan O'zbekiston Respublikasining ikki yilda bir marta yangilangan birinchi hisobotiga ko'ra, qishloq xo'jaligi O'zbekistonda issiqxona gazlari emissiyasining ikkinchi yirik manbasidir — bu umumiy emissiyaning 17 foizdan ortig'ini yoki 33 million tonnadan ortiq CO<sub>2</sub> ekv.ni tashkil etadi. Bu soha ichki talab va eksport hisobiga jadal rivojlanmogda, biroq emissiyalar ham ortib bormogda. Qishloq xo'jaligi sohasida "yashil" o'tishni amalga oshirish chora-tadbirlari organik dehqonchilikni kengaytirish, bog'dorchilikni rivojlantirish, issiqxona texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, energiya tejoychi nasoslar va tomchilatib sug'orish usullariga o'tishni o'z ichiga oladi.

## Muhokama va xulosalar

- Uzoq muddatli strategik karbonsizlantirish choralari global va milliy darajadagi iqlim siyosatining muvaffaqiyati uchun, shuningdek, tegishli maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun juda muhimdir;
- Muvaffaqiyatli strategiyalar aniq ifodalangan ko'rinishi, sohalarning yo'l xaritalari hamda tarmoqlararo yondashuvning mavjudligi bilan xarakterlanadi;
- O'zbekiston Respublikasining iqlim o'zgarishi bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasi yaqin vaqtda tasdiqlanadi. Uni amalga oshirish bo'yicha tegishli yo'l xaritalari har 3 yilda yangilanadi, bu esa global iqlim siyosatidagi o'zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo'lish hamda ilg'or jahon tajribasi va yechimlarini joriy etish imkonini beradi;
- Iqlim o'zgarishi bo'yicha qo'shimcha normativ-huquqiy hujjatlar barcha darajadagi strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Tabiiy ofatlarga javob choralari tizimini kuchaytirish orqali iqlimga chidamlilikni oshirish

6-sessiya 18.11.2021 Toshkent, O'zbekiston



## Glazgodagi TK-26 natijalari: O'zbekiston va Markaziy Osiyo jahon miqyosida o'zini namoyon qildi



2021-yilning 31-oktabrdan 13-noyabriga qadar Buyuk Britaniyaning Glazgo shahrida Birlashgan Millatlar tashkilotining iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konventsiyasi (BMT IO'DK) ning 26-tomonlar konferentsiyasi (TK-26) bo'lib o'tdi. Bunday yirik xalqaro tadbirda ilk bor Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) sa'y-harakatlari bilan xalqaro hamkorlar ko'magida "5 mamlakat – 1 hudud – 1 ovoz" Markaziy Osiyo pavilyoni tashkil etildi. Pavilyonda mintaqaviy va milliy bayonotlar taqdim etildi; O'zbekiston ushbu maydondan jahon hamjamiyatini [iqlim va "yashil" o'tish davrining milliy ustuvorliklari](#), iqlim xatarlari hamda maqsadlari haqida xabardor qilish uchun foydalangdi.

## Iqlim o'zgarishining ta'siri va moslashuv choralari rejallashtirish

O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi ma'lumotlariga ko'ra, instrumental kuzatishlar davrida mamlakatda havo harorati 1.5°C ga ko'tarildi va uning yanada sezilarli o'sishi kutilmoqda. O'zbekistonning suv resurslari [isish ta'siriga sezgir bo'lib](#), sellarga, suvga talab yuqori bo'lgan davrda suv tanqisligining kuchayishiga, qurg'oqchiliklarga olib keladi. "Yashil" iqlim jamg'armasi (YIJ) va BMTTD suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligi, aholining zaif guruhlari, Orolbo'yi, ekotizim va infratuzilma kabi mavzularga alohida e'tibor qaratgan xolda iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha milliy rejani ishlab chiqishda O'zbekistonga yordam bermoqdalar. O'zbekistonning kontseptsiyalari va dasturlari, tarmoqlar strategiyalari doirasida muayyan moslashuv choralari allaqachon amalga oshirilmoqda.

## Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish

O'zbekiston sel, toshqinlar, qor ko'chkisi, qurg'oqchilik va chang bo'roni kabi ekstremal ob-havo hodisalariga, shuningdek, zilzilalar, ko'chkilar va tosh qulashi kabi geologik xavf-xatarlarga moyil.

O'zbekiston aholisi va iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi tabiiy ofatlar:



✓ Sellar va toshqinlar



✓ Qor va tuproq ko'chkilari



✓ Qurg'oqchilik va chang bo'ronlari



✓ Zilzilalar

O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi (O'zGidromet) [ob-havo va iqlim xatarlaridan erta ogohlantirish va iqlim o'zgarishi](#) ta'sirini baholash uchun mas'uldir. Jahon banki kadrlar tayyorlash, salohiyatni rivojlantirish, zamonaviy asbob-uskunalar yetkazib berish va yangi prognozlash va erta ogohlantirish vositalarini tadbiriq etish bo'yicha joriy milliy va mintaqaviy loyihalarni hisobga olgan holda, O'zGidrometni modernizatsiya qilish jarayonini rejallashtirishni qo'llab-quvvatlaydi.

## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi, O'zbekiston Milliy universiteti, Jahon banki va BMTTD vakillari so'zga chiqdilar.

Orolbo'yida cho'llanish va yerlarning degradatsiyasi 2 million gektar yerga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda keyingi yillarda o'rmonlarni tiklash salohiyati va rejaları sezilarli darajada oshirilib, yiliga 50 ming gektardan 500 ming gektarga yetkazildi (O'zGidromet ma'lumotlariga ko'ra). Orol dengizi atrofidagi o'rmon plantatsiyalari maydoni 1.6 million gektarga yetdi (O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra). Mahalliy aholini ichimlik va sug'orish suvi bilan ta'minlash maqsadida Orolbo'yining turli hududlarida 100 dan ortiq quduqlar qazildi (Unesco, 2020).

Mamlakat hukumati tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha profilaktika va javob choralarini ko'rmoqda, jumladan, aholining zaif qatlamlarini suv toshqini va ko'chkiga moyil bo'lgan hududlardan, xavfsiz hududlarga ko'chirish, daryolar qirg'oqlarini mustahkamlash, sel va ko'chki xavfi bo'lgan joylarda o'rmonlar ekish, aholini o'qitish va xabardorligini oshirish.

Tabiiy ofat xavfini kamaytirish bo'yicha ba'zi chora-tadbirlar:



✓ Erta ogohlantirish



✓ Texnik va tabiiy yechimlar



✓ Chang bo'ronlari va cho'llanish ta'sirini kamaytirish uchun o'rmonlar ekish



✓ Xavfli hududlardan ko'chirish

BMTTD va O'zGidromet Moslashuv jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan Orolbo'yi mintaqasida iqlim xavf-xatarlariga, ayniqsa, qurg'oqchilikka moslashish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni sinab ko'rish va joriy qilishga qaratilgan qo'shma loyihani amalga oshirdilar. Bularga suv va tuproqni asrash texnologiyalari, yem-xashak yetishtirish, yaylovlar yukini boshqarish, yerlarni lazer bilan tekislash va qurg'oqchilikdan erta ogohlantirish tizimi kiradi. O'zbekistondagi CAMP4ASB loyihasining milliy komponenti kreditlar va texnologiyalarni taqdim etish orqali qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish tajribasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligiga va qishloq xo'jaligi korxonalariga muvaffaqiyatli amaliyotlarni qo'llash va ularning ko'lamini kengaytirish imkonini bermoqda. Muvaffaqiyatlarni rivojlantirishda bozor islohotlari, iqlim sohasidagi moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati va fermerlarning iqlim o'zgarishi bo'yicha xabardorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

## Murakkabliklar va noaniqliklar

- Iqlim o'zgarishi suv tanqisligiga, sellarga, muzlik ko'llarining yorilishi tufayli kutilmagan suv toshqiniga, qurg'oqchilikka, chang bo'ronlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin;
- Qishning issiq kelishi tog'larda qor zahiralarning kamayishida o'z aksini topadi, va bu sug'orishning eng yuqori mavsumida suv tanqisligiga olib keladi;
- Bahordagi yuqoriroq shiddatli yog'ingarchiliklar sel oqimlarini keltirib chiqaradi va qor erishi ertaroq sodir bo'lishini hisobga olsak, qorning faol erishi va kuchli yog'ingarchilikning kombinatsiyasi toshqinlar xavfi oshiradi;
- Haroratning o'zgaruvchanligi va kun davomida tebranishi oshib boradi, bu o'simliklarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda kasalliklar va zararkunandalarning tarqalishiga hissa qo'shadi.

## Muhokama va xulosalar

- Eroziya va cho'llanishdan zarar ko'rgan o'rmon plantatsiyalari va landshaftlarini tiklash va kengaytirish, shuningdek aholini va shahar xizmatlarini erta ogohlantirish orqali qum bo'ronlarining ta'sirini kamaytirish mumkin;
- Transchegaraviy ob-havo va toshqinlarni prognoz qilish muhim ahamiyatga ega va hozirda Jahon banki tomonidan Markaziy Osiyo suv toshqini haqida erta ogohlantirish tizimini (CAFEWS) ishlab chiqish orqali qo'llab-quvvatlanmoqda;
- Tabiiy ofatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha mintaqaviy hamkorlik muhim ahamiyatga ega va Markaziy Osiyo mamlakatlari favqulodda vazirlik va idoralari tomonidan tashkil etiladigan mintaqaviy forumlar orqali muvofiqashtiriladi;
- Tabiiy ofatlarni oldini olish va falokatdan keyingi tiklanish hamda javob choralarini ko'rishga investitsiyalarni yo'naltirish va ularni muvozanatlash kerak;
- Ideal holda, ob-havoga qaram bo'lgan u yoki bu sohani nazorat qiluvchi har bir vazirlik iqlim masalalarini hal qilish va iqlim o'zgarishining ta'siriga o'z sohasi barqarorligini monitoring qilish uchun bo'lim va kadrlarga ega bo'lishi kerak;
- Orol dengizi ekologik halokati oqibatlarini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar iqlim o'zgarishiga moslashish chora-tadbirlari bilan o'zaro bog'liqdir.

## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Iqlim siyosatidan eng ko'p zarar ko'rgan odamlar va hududlarni qo'llab-quvvatlash



7-sessiya 02.12.2021 Toshkent, O'zbekiston

## Iqlim sharoitiga sezgir bo'lgan hududlar va sohalarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bandlik va ta'limni rivojlantirish

Orolbo'yi mintaqasi Orol dengizining ekologik halokati tufayli ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan aziyat chekayotganiga, ish o'rinlari qisqarayotganiga yorqin misoldir. Shu bilan birga, bu ijtimoiy-iqtisodiy va atrof-muhitni tiklash sohasidagi chora-tadbirlar va Innovatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilishining namunasi hamdir.


Mahalliy ekspertlarning fikricha, 2030-yilga borib 2 millionga yaqin kishi o'z ishini va tirikchilik manbalarini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun "yashil" o'sish rivojlanishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu kontsepsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish adolatli o'tish va yangi ish o'rinlarini yaratishga bog'liq. Jahon banki O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtiradi. Mazkur islohotlar tufayli yaqin yillarda kam ta'minlangan va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamidan 1 millionga yaqin kishi ish bilan ta'minlanishi mumkin.

O'zbekiston aholisi jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Hozirgi vaqtda uning soni 35 million kishini tashkil etadi, shundan 13 million kishi ish bilan band. "Yashil" ish o'rinlari bo'yicha statistika hali mavjud emas. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining "yashil" iqtisodiyotga oid kadrlar tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha katta rejalari bor. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ekologiya va tabiatdan foydalanish bo'yicha kasb-hunar va ixtisoslashtirilgan ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Mamlakat oliy ta'lim muassasalari — masalan, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Samarqand Davlat arxitektura-qurilish instituti o'quv dasturlarini takomillash-tirish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ish olib bormoqdalar.

O'zbekistonda aholi dinamikasi va "yashil" o'tish davridagi muammolar:



✓ Aholi sonining tez o'sishi va o'rtacha yoshining pastligi, ta'limga bo'lgan talabning ortib borishi



✓ Ekologik noqulay hududlardan aholi-ni migratsiyasi yoki ko'chirilishi



✓ Bir qator tarmoqlarda bandlikning qisqarishi, yangi "yashil" bandlik uchun qayta tayyorlash zarurati



✓ Iqlim o'zgarishidan zarar ko'rgan uy xo'jaliklarini boshqaradigan ayollar va qishloq xo'jaligi xodimlarini bevosita qo'llab-quvvatlash va qayta tayyorlash

"Yashil" iqtisodiyotga jadal o'tish mehnat bozori tarkibidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin — ba'zi hunarlar, ayniqsa ko'mir qazib olish va yoqilg'i sohasidagi kasblar kamroq ahamiyatli bo'lib qoladi. Energiya, suv, oziq-ovqat narxlarini bir vaqtning o'zida oshishi ularni sotib olish imkoniyatini pasaytirishi va qashshoqlikning oshishiga olib kelishi mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekistonda ayollar ko'pincha qishloq xo'jaligida bandligini hisobga olsak, jazirama issiq va boshqa ekstremal ob-havo hodisalari qishloq mehnatkashlariga va ayollar boshqaradigan uy xo'jaliklariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, iqlim o'zgarishi iqtisodiyot, bandlik va mehnat sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina mamlakatlar allaqachon turli xil yechimlarni amalga oshirmoqdalar, jumladan:

- ✓ aholining kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini bevosita qo'llab-quvvatlash;
- ✓ "yashil" isitish va elektr energiyasi uchun maqsadli subsidiyalar;
- ✓ kasbiy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash;

## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki vakillari so'zga chiqdilar.



- ✓ ayollar boshqaruvidagi uy xo'jaliklarini, shuningdek, tabiiy ofatlardan jabrlanganlarni va bolalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar va jamg'armalar.

## O'zbekistonning ijtimoiy xususiyatlari



Ayollar boshchiligidagi uy xo'jaliklari mamlakat umumiy aholisining 20 foizini tashkil qiladi (Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi). Qishloq jamoalari suv ta'minoti va suv imkoniyatlariga juda bog'langan. Nogironligi bor shaxslar suv tashish va boshqa ishlarni bajarish uchun ko'proq vaqt va kuch sarflashadi. Sanab o'tilgan guruhlar global isish oqibatlarida oldida ayniqsa himoyasizdir.



Mahalliy an'anaviy boshqaruv institutlari mahalliy darajada iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlarga chidamlikni oshirishda zaruriy rolni o'ynaydi. O'zbekiston mahallalari — mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, jamiyat a'zolari hayotida faol ishtirok etmoqdalar, qiyin vaziyatlarda ularga yordam va ko'mak ko'rsatishmoqdalar. Mahalla kuchlari tomonidan treninglar o'tkazish, bilimlar tarqatish va mahalliy moslashuv chora-tadbirlarini ilgari surish, masalan, daraxt ekishni amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston hukumati aholini, ayniqsa, uning zaif guruhlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Kam ta'minlangan oilalarni monitoring qilish va qo'llab-quvvatlashni kengaytirish maqsadida 2021-yilda 1.2 million yozuvga ega bo'lgan yagona reyestr joriy etildi, bu 2018-yilga nisbatan ikki barobar ko'pdir. "Ayollar daftari" qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni ijtimoiy himoya qilishning yangi tizimidir. Ushbu vosita ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy, bank xizmatlari, huquqiy yoki psixologik yordam olish, shuningdek, ularni hal qilishning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash uchun 1 milliondan ortiq ayolni so'roq qilish natijalari asosida ishlab chiqilgan (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi).

## Muhokama va xulosalar

- Qo'shimcha ma'lumot: iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar va atrof-muhit degradatsiyasining oqibatlarini mintaqadan mintaqaga farq qiladi va ichki ko'chish va ekologik migratsiyaga, ish o'rinlarining yo'qolishiga va kambag'allikning oshishiga olib kelishi mumkin;
- Adolatli o'tishni tashkil etish, jumladan, aholining zaif qatlamlariga, ayniqsa, "yashil" qayta qurish va iqtisodiy cheklolvar tufayli ish joyini yo'qotish xavfi bo'lgan ishchilarga yetarli e'tibor berish — qiyin vazifa. Bunda ayollar, yoshlar va pensiya yoshidagi ishchilarga alohida e'tibor qaratish lozim;
- O'zbekiston hukumati Jahon banki va rivojlanish hamkorlari ko'magida, ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi aholiga katta e'tibor qaratmoqda, shuningdek, iqlim o'zgarishi va "yashil" o'tish bilan bog'liq masalalarda kadrlar tayyorlash va malaka oshirishning maqsadli dasturlarini amalga oshirmoqda;
- O'quv markazlari yoshlar va kattalarni bilimlarini oshirish va o'z tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishlari uchun jalb qiladi; ilmiy-tadqiqot va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bunday markazlar faoliyati samaradorligini oshirishi mumkin;
- Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari — mahallalar — mahalliy darajada iqlim masalalari bo'yicha yechimlarning faol ishtirokchisi bo'lishi mumkin;
- O'zbekiston [Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi](#) mahalliy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash uchun mahallalar bilan hamkorlik qiladi va iqlim o'zgarishi bo'yicha mahalliy aholining xabardorligini oshirish va yechimlar izlashda ishlatilishi mumkin;
- Iqlim o'zgarishi sohasidagi yechimlarni aniqlash va amalga oshirishga jamoat tashkilotlarini jalb qilish bo'yicha global tajribalar O'zbekiston tomonidan o'rganilishi va qo'llanilishi mumkin. Bular qatoriga Indoneziyaning ([Indonesia's National Community Empowerment Program "PNPM Green"](#)) va Keniyaning ([Kenya's Locally-Led Climate Action Program](#)) muvaffaqiyatli dasturlari kiradi;
- Yillik hududiy rivojlanish rejalarini iqlim o'zgarishi va "yashil" iqtisodiyot sohasidagi tadbirlar bilan (har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda), jumladan, ilg'or amaliyotlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun tegishli o'quv dasturlari bilan to'ldirish maqsadga muvofiq ko'rinadi;
- Yaratilgan "yashil" ish o'rinlari yo'qotiladigan ishlarga qaraganda turli mintaqalarda joylashgan bo'lishi yoki turli xil ko'nikmalar to'plamlarini talab qilishi mumkin. Shu tariqa, "yashil" o'tish nafaqat "yashil" investitsiyalarni, balki mintaqalar va tarmoqlar bo'ylab harakatlanish uchun to'g'ri mahorat to'plamlari va imtiyozlarga ega ishchilarni ham talab qiladi;
- Ijtimoiy himoya va mehnat siyosati odamlarga iqlim ta'siridan kelib chiqadigan zarbalarga javob berishga yordam beradi va Evropa Ittifoqi mamlakatlarida va undan tashqarida ko'plab iqlim o'zgarishi va "Yashil" adolatli o'tish siyosatlarining muhim ustunidir. Atrof-muhitga oid aniq maqsadlarsiz ham, naqd pul o'tkazmalari, jamoat ishlari, o'qitish va bandlik dasturlari kabi ijtimoiy himoya dasturlari kambag'al va zaif qatlamlarga iqlim ta'sirini yaxshiroq o'zlashtirishga va o'zgaruvchan mehnat bozorlariga moslashishga yordam beradi.

### Qo'shimcha ma'lumot:

- Xatarlarni baholash bo'yicha tahliliy sharhda mahallaning roli haqida (JB, 2021): <http://documents.worldbank.org/curated/en/099330012232131334/P1752340b67521097092610c048ec6641f8>
- O'zbekistonda ayollar boshchilik qilayotgan uy xo'jaliklari o'rtasida energiya muammolariga zaiflik (JB, 2020): <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/33314>

## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Tarmoqlararo tadbirlar va tabiiy resurslardan oqilona, samarali foydalanish orqali iqlim barqarorligini rivojlantirish



8-sessiya 09.12.2021 Toshkent, O'zbekiston

Tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning asosi bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish, samarali ekotizim xizmatlari va qishloq joylarida hayot sifatini oshirish uchun juda muhimdir. O'zbekiston suv iste'moli bo'yicha barqaror bo'lmagan va past samarali amaliyotga ega bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi (suvning umumiy olinishini tiklanadigan manbalarga nisbati bo'yicha), Orol dengizining deyarli butunlay yo'q bo'lib ketishi shundan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda suv olish darajasi mavjud tiklanadigan suv resurslarining 90 foizidan oshadi (Suv xo'jaligi vazirligi). Shu bilan birga, O'zbekistonda yerlarning degradatsiyasi tufayli iqtisodiy yo'qotish yalpi ichki mahsulotning (YalM) 3 foizini tashkil etadi (ELD 2016).

Agar yer zarar ko'rgan bo'lsa, landshaftni tiklash imkoniyatlar ochib beradi va iqtisodiyotning ko'plab sohalariga foyda keltiradi. Haddan tashqari chorvaga o'tlatish, yoqilg'i va foydali qazilmalar qazib olish yoki ekstensiv qishloq xo'jaligi natijasida degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash u yerlarni samarali foydalanishga qaytarish imkonini beradi. Ammo bular landshaftga faqat kompleks yondashuv bo'lgandagina mumkin bo'ladi.

## Tegishli qishloq xo'jaligi amaliyotlari

Qishloq xo'jaligi YalM ning deyarli to'rttdan bir qismini yaratadi va aholi bandligini yuqori darajada ta'minlaydi. Hozir O'zbekistonda sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining 10 foizdan kamroq qismi suv tejavchi texnologiyalar bilan ta'minlangan, vaholanki, qishloq xo'jaligi suv resurslarining qariyb 90 foizini sarf qiladi (Qishloq xo'jaligi vazirligi). Bu soha — ob-havo va gidrologik omillarga juda sezgir. Fermerlar almashlab ekishni o'zgartirib turish, qurg'oqchilikka chidamli ekinlardan foydalanish va ihota daraxtzorlari ekish orqali iqlim va suv tanqisligi muammolarini hal qilmoqdalar.

O'zbekiston hukumati tomonidan qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan barqaror foydalanish kontsepsiyasi hayotga tatbiq etilib, sug'oriladigan va lalmi ekin maydonlari hamda yaylovlarga e'tibor qaratilmoqda. Tuproq va geobotanik monitoring ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining suv xo'jaligini 2020–2030-yillarda rivojlantirish kontsepsiyasi suvni tejavchi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish va sug'orish tarmoqlari samaradorligini oshirishga chaqiradi.

## O'rmonlarni o'stirish va qayta tiklash

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tasarrufida 12 million gektar o'rmon fondi yerlari, shu jumladan, 3.3 million gektar o'rmon bilan qoplangan maydonlar (mamlakat umumiy maydonining 7.3 foizi) mavjud. Orol dengizining qurigan tubida va uning atrofida saksovul ekish, shuningdek, tog'li hududlarda agro o'rmonchilikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish hamda o'rmonlarning tabiiy qayta tiklanishi natijasida keyingi paytlarda O'zbekistonda o'rmonlar maydoni jadal kengaydi. Davlat va xususiy investitsiyalardan tashqari qator xalqaro hamkorlar Orolbo'yida o'rmonzorlar barpo etish va o'rmonlarni tiklashda yordam ko'rsatmoqdalar. O'zbekiston o'rmonlarining asosiy yog'ochmas mahsulotlari va xizmatlari oziq-ovqat va dorivor o'simliklar, asal va ekoturizmdir.

O'rmon xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga o'rmonlar monitoringi, pista va bodom plantatsiyalarini kengaytirish, shaharlarda yashil maydonlar yaratish, agro o'rmon xo'jaligini rivojlantirish, asal va dorivor giyohlar yetishtirish kiradi.

## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Samarqand davlat universiteti, "Suvchi" NNT, Jahon banki vakillari so'zga chiqdilar.



## Suv resurslari

Mintaqada haroratning oshishi, muzliklar va qor qoplarning yanada tezroq erishi kelajakda daryolarda suv yig'ilishining pasayishiga va O'zbekistonning asosiy daryolarida suv tanqisligining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, havo o'rtacha haroratining kutilayotgan o'sishi bug'lanishning ko'payishiga va ayniqsa, sug'oriladigan dehqonchilikda suvga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

O'zbekiston suv ho'jaligidagi tadbirlarning muhim yo'nalishlari:



- ✓ Suv omborlarini qurishga, to'g'onlar xavfsizligini ta'minlashga investitsiyalar, suv yig'ish rejimini sozlash



- ✓ Suvni transportirovka qilishning samarali tizimlariga investitsiyalar, suv yo'qotishlarni kamaytirish



- ✓ Energo-samarador sug'orish, emissiyani kamaytirish va nasos tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlariga investitsiyalar



- ✓ Suv ma'lumotlari va axborotlarini raqamlashtirish, real vaqtda monitoring qilish va masofadan zondlash

## Muhokama va tavsiyalar

### Landshaftlarni integratsiyalangan boshqarish

- Qo'riqlanadigan hududlar, o'rmonlar, daraxtzorlar, agro-yaylov yerlari, ekin maydonlari, sug'oriladigan yerlar hosildorligini oshirish bilan ekotizim xizmatlarini (shu jumladan, suv bilan ta'minlash) bog'lash uchun landshaftlarni Integratsiyalashgan boshqarish (LIB) orqali qishloq, suv va o'rmonni sinergik tarzda boshqarish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish;
- LIB yerdan foydalanishning integratsiyalashgan rejasi va yerdan foydalanish o'rtasidagi bog'liqlikni talab qiladi;
- LIB ning ba'zi muvaffaqiyatli misollarini Xitoyda ko'rishimiz mumkin, u yerda daraxt ekish, yerni terrasa qilish va boshqa chora-tadbirlar ilgari "oy manzarasi" bo'lgan joylarni uy-joy va qishloq xo'jaligi uchun mos hududlarga aylantirishga yordam berdi; shuningdek, Kosta-Rikada qazib olinadigan yoqilg'i va chiqindilarga soliq solinishi, chorvachilik uchun subsidiyalarni bekor qilinishi va yaxshi boshqaruv tufayli ekoturizm orqali tirikchilik manbasiga aylangan buzilgan o'rmonlarning 60 foizini tiklashga muvaffaq bo'lindi.

### Qishloq xo'jaligi:

- Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini paxtachilikdan bog'dorchilikka va iqlimga mos ishlab chiqarish usullariga diversifikatsiya qilish;
- Qishloq xo'jaligi subsidiyalarini qayta ko'rib chiqish;
- Samarali sug'orish amaliyotini kengaytirish: quyosh energiyasida ishlaydigan zamonaviy nasoslar, tomchilatib sug'orish va yer ostidan sug'orish;
- Yaylovlarni barqaror boshqarish.

### O'rmon xo'jaligi:

- Tuproq eroziyasini, qum va chang bo'ronlarini kamaytirish, ekotizim va infratuzilma barqarorligini oshirish uchun asosiy yechim sifatida iqlimga chidamli daraxt turlari va navlarini ekish;
- Sohillarni muhofaza qilish, mevali va rezavor daraxtlarni ko'paytirish, xo'jalik yog'ochi yetishtirish maqsadida daryolar bo'ylab ko'chatlar ekishni kengaytirish.

### Suv resurslarini boshqarish:

- Umumiy suv sarfi va suv resurslariga yuklamani kamaytirish maqsadida birgalikda rejalashtirish va umumiy suv olish limitlarini belgilash/amalga oshirish/monitoring tuzilmalarini mustahkamlash;
- Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalariga investitsiyalar;
- Suv xo'jaligi sohasida suvni yanada samarali taqsimlash va iqlim o'zgarishiga moslashish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida suv resurslari bo'yicha axborotni monitoring qilish, modernizatsiya qilish va raqamlashtirish;
- Qishloq xo'jaligi uchun yer osti suvlaridan ortiqcha foydalanishni cheklash.

## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# Qulay siyosiy muhit: islohotlar, huquqiy va siyosiy jarayonlar, iqlim o'zgarishi va "yashil" o'sish sohasidagi rejalar



9-sessiya 15.12.2021 Toshkent, O'zbekiston

## Qonunchilik va siyosat jarayonlari



O'zbekiston Birlashgan Millatlar tashkilotining iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konventsiyasi (BMT IO'DK) ishtirokchisi bo'lib, 2018-yilda iqlim bo'yicha Parij kelishuvini ratifikatsiya qilgan. Mamlakatning iqlim o'zgarishi sohasidagi qonunchiligi rivojlanmoqda, jumladan Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi, qayta tiklanadigan energiya manbalari to'g'risidagi, gidrometeorologik faoliyat to'g'risidagi, ekologik audit to'g'risidagi qonunlar. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va Prezident tashabbusi, shuningdek, BMTning Orolbo'yi hududini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Ekologik kodeksi loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, u iqlim sohasidagi qoidalarini o'z ichiga oladi.

Tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun amaldagi qonunlar va jozibador investitsiya sharoitlarini o'z ichiga olgan ko'p ishlar qilingan bo'lsada, O'zbekiston hali iqlim qonunlarini qabul qilmagan. Iqlim bo'yicha qonunchilik va me'yoriy hujjatlarning mavjudligi ijro etuvchi davlat organlari, xususiyl sektor, uy xo'jaliklari, iqlim texnologiyalari sohasidagi xorijiy investorlar uchun huquqni qo'llash amaliyotining barqarorligi va uzluksizligini ta'minlaydi, shuningdek, idoralararo muvofiqlashtirish va "yashil" davlat byudjetini shakllantirishga yordam beradi.

2020-yilda Jahon banki 30 dan ortiq mamlakatlardagi iqlim bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarning tahliliga asoslangan 12 bo'limdan iborat bo'lgan [iqlim o'zgarishi sohasidagi asos qonunchilik bo'yicha qo'llanma](#) nashr etdi. Ushbu qo'llanma xalqaro [vositalar](#) to'plami va [resurs materiallari](#) bilan bir qatorda O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha o'z qonunchiligini ishlab chiqish jarayonida foydali bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Ekologik partiyasi parlamentda "yashil" qonunchilikning lokomotivi hisoblanadi. Partiya vakillari, shuningdek, saksovul ekish, chiqindilarni yig'ish, velosiped safarini ommalashtirish va iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha xabardorlikni oshirish uchun jamoatchilik kampaniyalari va tadbirlarida faol ishtirok etmoqda. Iqlim o'zgarishi va "yashil" iqtisodiyot sohasidagi ustuvorliklarni oliy ijro darajasida tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Milliy Gidrometeorologiya xizmati BMT IO'DK ning milliy koordinatori vazifasini bajaradi. U O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda iqlim siyosati, hisobotlari, issiqxona gazlarini (IG) milliy inventarizatsiya qilishga javob beradi va iqlim o'zgarishining oqibatlarini baholaydi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi "Yashil" iqlim jamg'armasi (YIJ) bilan hamkorlik qilish bo'yicha Milliy vakolatli organ (MVO) hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi "yashil" iqtisodiyotga o'tish sohasidagi tadbirlarni muvofiqlashtiradi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi chiqindilarni boshqarish tizimini isloh qilish, ifloslanishni nazorat qilish, atrof-muhit monitoringi va ekologik ma'lumotlarni to'plash bilan shug'ullanadi.

O'zbekistonda issiqxona gazlarini inventarizatsiya qilish tizimi yaxshi ishlab chiqilgan bo'lib, 1990-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davrni (2018–2019-yillar uchun ma'lumotlar tayyorgarlik bosqichida) va beshta emissiya toifasini qamrab oladi: 1) energetika, 2) sanoat jarayonlari, 3) qishloq xo'jaligi, 4) o'rmon xo'jaligi va yerdan foydalanish va 5) chiqindilar. 26 ta vazirlik va idoralar IG larini inventarizatsiya qilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, ma'lumotlarning asosiy manbai O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisoblanadi. O'zGidromet ekspert guruhi IG milliy kadastrini texnik qo'llab-quvvatlaydi va sifat nazorati bilan ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda monitoring, tekshirish va hisobot berish tizimi (MTH) ishlab chiqilmoqda. Bu tizim O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro loyihalarni hisobga olgan holda IG emissiyasi kadastrini hamda emissiyani kamaytirish chora-tadbirlarini qamrab oladi.


## Sessiyada

Parlament va O'zbekiston Ekologik partiyasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, UNEP, "Atrofmuhit" eko-portali, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jahon banki vakillari so'zga chiqdilar.

BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasiga (2021) muvofiq tayyorlangan O'zbekiston Respublikasining ikki yilda bir marta yangilanadigan birinchi hisobotiga ko'ra, 2017-yilda O'zbekistonda IG emissiyasining umumiy miqdori 189 million tonna CO<sub>2</sub>-ekv. ni tashkil qilgan. Energetika sektoriga umumiy emissiyaning 76–80 foizi, shu jumladan 50 foizi qazib olinadigan yoqilg'ilarni yondirishdan va 26–30 foizi ko'mir hamda neft va gaz sohalarida sizib chiqadigan yoki nazorat qilinmaydigan metan emissiyasi hissasiga to'g'ri keladi. So'nggi 10 yil ichida energetika bilan bog'liq emissiyalar kamaydi. Aksincha, qishloq xo'jaligida chiqayotgan gazlar chorva mollari sonining o'sishi hisobiga ortib, umumiy ko'rsatkichning 18 foiziga yetdi. Sanoat jarayonlaridagi emissiya umumiy emissiyaning 5 foizini tashkil qiladi. Chiqindilarni boshqarish sohasida emissiya atigi 1 foizni tashkil qiladi, lekin ularning hajmi yildan- yilga o'sib bormoqda.

O'zbekiston 2022-yilda Orolbo'yi mintaqasi uchun "yashil" iqtisodiyot bo'yicha oliy darajadagi xalqaro forum tashkil etishni va 2023-yilda BMTning Atrofmuhit bo'yicha 6-Assambleyasini hamkorlikda tashkil etishni rejalashtirmoqda.

## O'zbekistonda issiqxona gazlari emissiyasi




## Muhokama va tavsiyalar

- Iqlim qonunchiligi bo'yicha xalqaro tajriba, instrumentariyalar va ko'rsatmalar O'zbekistonga muvaffaqiyat imkoniyatlari, asosiy elementlari va omillarini tahlil qilish, iqlim bo'yicha o'z normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek, moliyaviy-texnik resurslarni jalb etishga yordam beradi;
- O'zbekistonning tiklanadigan energiya, iqlim va ekologiya sohasidagi qonunchiligi rivojlanib bormoqda. MTHning emissiyalarni hisobga olish tizimi iqlim o'zgarishi va "yashil" iqtisodiyot bo'yicha siyosat va hisobotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, hozir moslashuv masalalarini hal qilish jarayoni ketmoqda. MTHni amalga oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarning loyihalari tayyorlangan va ularni amalga oshirish uchun tasdiqlash talab etiladi;
- Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ayrim masalalar energiya samaradorligi, energiya va suvni tejash, tiklanadigan energiya va o'rmonchilik sohasidagi tarmoq qonunchiligi va normativ hujjatlari bilan bilvosita tartibga solinadi;
- Atrof-muhit monitoringini avtomatlashtirish va ma'lumotlar tizimlari integratsiyalashuvini o'z ichiga olgan zamonaviy axborot tizimlari orqali raqamlashtirish hamda ma'lumotlar almashinuvi Suv xo'jaligi vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, O'zGidromet va u kabi vakolatli organlarning tahliliy markazlari va laboratoriyalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yordam beradi. Yagona geoaxborot tizimi va raqamli ekologik xaritalarni yaratish ushbu jarayonning natijasi bo'lishi mumkin;
- Parlament a'zolari, xususan O'zbekiston ekologik partiyasi qonunchilik, jamoatchilik harakatlari hamda tashabbuslari orqali iqlim o'zgarishi va ekologik kun tartibini ilgari surmoqdalar; fuqarolik jamiyati vakillarini siyosiy jarayonlarga jalb etish qonunchilik islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartidir;
- Tashkiliy salohiyat va inson resurslarini rivojlantirish iqlim sohasida qarorlar qabul qilish jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi;
- O'zbekiston Respublikasi 2030-yilgacha Ekologiya kodeksining yangilangan loyihasi atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi qoidalarini hisobga olgan holda Davlat Ekologiya qo'mitasining ekologiya nozirlari faoliyatiga to'sinlik uchun javobgarlikni kuchaytirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar bilan birgalikda ko'rib chiqilishi, qabul qilinishi va joriy etilishi kerak. Mamlakat iqlim qonunchiligini joriy etish masalasini hukumatlar, uy xo'jaliklari va xususiy sektor uchun kuchli signal sifatida ko'rib chiqishi mumkin.

## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH


# "Yashil" moliyalashtirishni safarbar qilish, davlatning innovatsion va samarali "yashil" xaridlari



10-sessiya 13.01.2021 Toshkent, O'zbekiston

## Davlatning "yashil" investitsiyalari

Hukumat davlat investitsiyalarini ko'paytirishda va "yashil" o'tish uchun innovatsion moliyaviy vositalarni safarbar etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. 2021-yilda O'zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun 870 million AQSh dollari miqdorida obligatsiyalar chiqardi. Bu maqsadlar qatorida, jumladan, yerlarni tiklash, "yashil" transportni rivojlantirish, "Yashil sukuk" mexanizmini ishga tushirish, energiya samaradorligini oshirish loyihalari va boshqa innovatsiyalarni moliyalashtirish ham bor (Moliya vazirligi). Biroq, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi rivojlanish strategiyasiga ko'ra, qo'shimcha mablag'larni talab qiladigan ushbu tadbirlar "yashil" o'tish uchun yetarli emas. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mamlakatlar Parij kelishuvi maqsadlariga erishish uchun yalpi ichki mahsulotning (YalM) 6 foizi miqdorida moliyaviy resurslarni safarbar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Ham davlat investitsiyalarini, ham xususiy investitsiyalarni jalb qilish va ilgari rejalashtirilgan investitsiyalar uchun iqlim o'zgarishi xavfini kamaytirish muhim ahamiyatga ega.



2022-yilgi davlat budjeti to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda 73-sonli Qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xalqaro rivojlanish hamkorlari (BMTTD va Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA)) ko'magida "yashil" o'tishni amalga oshirish maqsadida "yashil" moliyaviy islohot bo'yicha yetakchi davlat organi hisoblanadi. Joriy ishlar "yashil" byudjetlashtirish metodologiyasini ishlab chiqish, davlat xarajatlarini BRM bilan bog'lash va muntazam monitoring qilish, "yashil" va barqaror davlat xaridlari tamoyillarini joriy etish, soliq va subsidiyalar tizimini "yashillashtirish" sohasidagi islohotlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi "Yashil" investitsiya kengashi orqali "yashil" investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishga hissa qo'shmoqda.

## "Yashil" moliyalashtirish uchun imkoniyatlar

**Davlat investitsiyalari.** Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy siyosat asoslarini iqlim o'zgarishini yumshatish va emissiyani kamaytirish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish turli islohotlarni o'zida mujassam etadi, misol tariqasida, ekologik maqsadlarni byudjet moliyalashtiruv va soliq siyosatini isloh qilish bilan integratsiya qilishni aytib o'tishimiz mumkin. O'zbekistonda YalMning 10 foizi energiya resurslari subsidiyalariga to'g'ri keladi: bu sohani qayta ko'rib chiqish toza energiya manbalaridan foydalanish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga yordam bergan bo'lardi. O'zbekistonda 2030-yilgacha elektr energetika sohasini karbonsizlantirish uchun zarur bo'lgan investitsiya yiliga 4 milliard AQSh dollari yoki YalMning 4.8 foizi miqdorida baholanadi (O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi). Shu tariqa, moliyaviy siyosat va subsidiyalarni qayta ko'rib chiqish, shuningdek, davlatning "yashil" xaridlari modelini joriy etish "yashil" o'tishni tezlashtirishga yordam beradi. Ko'pgina mamlakatlarda emissiyani kamaytirishda qo'llaniladigan "uglerod" soliq'i tizimini ham ko'rib chiqsa bo'ladi.

**Xususiy investitsiyalar.** Ilg'or xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xususiy sektorni jalb qilish uchun mamlakatda tegishli tartibga solish tuzilmalari, vositalari va rag'batlash choralari yaratilishi kerak. Buyuk Britaniya, Indoneziya va Janubiy Afrikadagi ilg'or amaliyot misollariga ko'ra "yashil" moliyalashtirish bo'yicha yo'l xaritalarini ishlab chiqish yaxshi boshlanish nuqtasidir. O'zbekiston misolida bank sektorini "yashillashtirish" "Yashil" taksonomiyani ishlab chiqish imkoniyati bilan muhim rol o'ynaydi. Bu investor uchun ma'lumotlar bazasini yaratishga yordam beradi, masalan, mamlakat uning iqtisodiyotga va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni qay usulda taqdim etishi to'g'risida, pensiya jamg'armalarini "yashil" loyihalarga investitsiya qilishi bo'yicha, pensiya jamg'armasi faoliyati va boshqalar to'g'risida.


## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, BMTTD, FTA, Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti, Hamkorbank, Jahon banki vakillari so'zga chiqdilar.

2020-yilda Jahon banki o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar uchun Milliy "yashil" taksonomiyani ishlab chiqish bo'yicha [qo'llanma](#) chiqardi. "Yashil" taksonomiya va uni amalda qo'llash juda muhim, chunki u: (1) investitsiya fondlariga "yashil" degan yorliqni berish va ularning shaffofligini oshirish uchun aniq mexanizm bilan ta'minlaydi; (2) "yashil" investitsiyalarga talabni yaratishga yordam beradi; "yashil" va "jigar rang" investitsiyalar orasida tanlash imkonini beradi; (3) manfaatdor tomonlar — markaziy bank, hukumat, tijorat banklari, fond birjalari va boshqalarni jalb qilish orqali hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga yordam beradi.

## "Yashil" va innovatsion moliyalashtirishni safarbar qilish: bank faoliyatini "yashillashtirish"

[Rossiya 2021-yilda "yashil" taksonomiyani \("yashil" va barqaror rivojlanish loyihalarining mezonlari\)](#) qabul qildi. U ilg'or xalqaro amaliyotga mos keladi va "yashil ipoteka", "yashil" va ijtimoiy yo'naltirilgan obligatsiyalar va hokazolarni o'z ichiga oladi. Jahon bankining ["Rossiya va global "yashil" o'tish: xatarlar va imkoniyatlar"](#) hisobotida iqlim va o'tish davri xavflarining bank sektoriga ta'sirini baholashga yordam beradigan boshqarish printsiplari, tadbiq etish ko'lamlari, "yashil" investitsiyalar va xaridlarning mezonlari hamda metodologiyasi mavjud.



O'zbekistondagi ilk xususiy banklardan biri bo'lgan Hamkorbank Gollandiya taraqqiyot banki bilan atrof-muhitga zararli chiqindilar chiqishini va energiya sarfini kamaytiradigan ekologik toza texnologiya va uskunalarni moliyalashtirish, energiya tejavchi isitish va sovutish tizimlarini joriy etish maqsadida "yashil" kreditlar bo'yicha hamkorlik qilmoqda. Bu yo'nalish mahalliy tadbirkorlar uchun ham, Hamkorbankning o'zi uchun ham yangilik. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) ushbu tashabbusni rivojlantirish uchun maqsadli moliyaviy va texnik yordam ko'rsatmoqda. Hamkorbank salohiyatining o'sishi, unga "Yashil" iqlim jamg'armasiga (YIJ) to'g'ridan-to'g'ri chiqish uchun akkreditatsiya qilingan milliy muassasaga aylanish imkoniyatini beradi. CAMP4ASB loyihasi doirasida Markaziy Osiyo Mintaqaviy Ekologik Markazi (MOMEM) "yashil" mezonlarni va iqlim mezonlarini ishlab chiqishda va O'zbekistonning ayrim hududlarida moslashuv loyihalari bo'yicha mikrokreditlar samaradorligini baholashda yordam berdi.

## Muhokama va xulosalar

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun katta investitsiyalar talab etiladi, shuning uchun birgina davlat byudjeti yetarli emas. Past uglerodli texnologiyalarga xususiy investorlarni faol jalb qilish zarur.

- O'zbekiston "yashil" o'tish sari qadam tashlamoqda, bu innovatsion fiskal vositalarni joriy etish orqali to'ldirilishi mumkin. Uglerod va yoqilg'i solig'ini iqtisodiy modellashtirish hukumatga toza energiya va toza yoqilg'ini kengroq joriy qilish uchun rag'batlarni yaxshiroq aniqlashga yordam beradi; shuningdek, "yashil" fiskal islohotning taqsimot jihatlari mos keladi. "Yashil" davlat xaridlarini kengaytirish "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirishning yana bir siyosiy vositasidir.
- Iqlim bo'yicha xalqaro moliyalashtirish imkoniyatini oshirish juda muhim. Subyektlarni "Amalga oshiruvchi agentliklar" sifatida akkreditatsiya qilish orqali "Yashil" Iqlim Jamg'armasiga (YIJ) kirishini amalga oshirish mumkin. Bank sektori YIJ akkreditatsiyasini olish va YIJ ga loyiha takliflarini muvaffaqiyatli tayyorlash va taqdim etish uchun qo'shimcha o'qitish va salohiyatni oshirishni talab qiladi.
- "Yashil" qonunchilik, "yashil" infratuzilmani rejalashtirish, byudjetlashtirish va ulardan foydalanishda tegishli tartibga solish organlari, vositalar hamda salohiyatni oshirish xususiy sektorni "yashil" moliyalashtirish va investitsiyalarga jalb qilish uchun zarurdir.
- "Yashil" investitsiyalarning samaradorligini baholash uchun natijalar monitoringi tizimini yaratish kerak. Xalqaro tajriba va Jahon bankining ko'rsatmalari O'zbekistonga zamonaviy "yashil" taksonomiyani joriy etishda, jumladan "yashil" investitsiyalar va "yashil" xaridlar ko'lami, yo'riqnomalari va mezonlari asoslarini shakllantirishda yordam berishi mumkin.
- "Yashil" investitsiya imkoniyatlari mahalliy hamda xalqaro miqyosda investorlar va potentsial investitsiyalarni bog'lash uchun davlat va xususiy ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikni taqozo etadi. Mahalliy kompaniyalar qayerga investitsiya kiritishni biladilar, xalqaro kompaniyalar esa investitsiya kiritish imkoniyatlarini qidirmoqdalar. Ular o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish umumiy manfaatga aylanadi.
- "Yashil" kreditlar va "yashil" bank mahsulotlari haqida xabardorlikni oshirish, shuningdek, iqlim o'zgarishining ta'siri va loyihalar samaradorligining iqlimga bog'liqligi hamda ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni mahalliy tadbirkorlar o'rtasida tarqatish, ularning mavzuga qiziqishini oshirishga yordam beradi.



## O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH

# "Yashil" iqtisodiyotning strategik asoslari hamda "yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi kun tartibini oldinga siljitish



11-sessiya 17.02.2022 Toshkent, O'zbekiston

Mustaqillik va islohotlarning o'tgan o'ttiz yili ichida O'zbekiston Orolbo'yida atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmonchilik choralarini tufayli iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Atrof-muhit bo'yicha amaldagi milliy rejalar hamda maqsadlar past uglerodli va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning markaziy elementlari bo'lib qolmoqda. Ammo sug'orish va ichimlik suvi taqisligi, ishonchli elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar hamon mavjud, bunga so'nggi paytlarda yuz bergan keng ko'lamlı elektr uzilishlari, misli ko'rilmagan qum va chang bo'ronlari dalil bo'la oladi. Odamlar, jamoalar, atrof-muhit va infratuzilmaga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ushbu muammolar O'zbekistonning "yashil" kelajagini ta'minlash uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini eslatib turadi.

## Siyosiy muloqotlar turkumining natijalari

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (ITKQV), Jahon banki, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) milliy va xalqaro hamkorlar bilan birgalikda "O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish" [siyosiy muloqotlar turkumini](#) tashkil qildilar. Muhokamalarda taniqli mahalliy va xalqaro ekspertlar ishtirok etdilar, o'zaro tajriba almashdilar, "yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi masalalarini muhokama qildilar hamda tavsiyalar berdilar.

1. Manfaatdor tomonlar O'zbekistonda "[yashil](#)" o'tishning aholi, iqtisodiyot va sayyoramiz tabiati uchun qulay bo'lgan mag'lubiyatsiz variantlari bo'yicha hamfirklikka erishdilar. O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida Moslashuvchanlik, Inklyuzivlik, Barqarorlik va Samaradorlik (MIBS, yoki, inglizcha "RISE") kabi ko'rsatkichlari mamlakatni yanada adolatli, samarali va barqaror tarzda rivojlantirish bo'yicha masalalar va maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. MIBS tamoyillari "yashil" o'sishning strategik asosida o'z aksini topgan.
2. Har bir ustuvorlik mavjud muammolar va innovatsion yechimlar kontekstida muhokama qilindi. Muhokamalar davomida yakuniy [to'plamda](#) o'z aksini topgan imkoniyatlar, jumladan, "yashil" iqtisodiyotga o'tishga yordam beradigan amaliy chora-tadbirlar va qadamlar aniqlab berildi.

Siyosiy muloqotlarda muhokama qilingan asosiy masalalar:



Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar



Orol dengizi va landshaftni tiklash



BRM va "yashil" iqtisodiyotni moliyalash



Toza energiya va shaharlar



Tabiatdan oqilona foydalanish



Adolatli o'tish



"Yashil" ish o'rinlari, ta'lim, xabardorlik

3. 2021-yilning noyabr oyida Glazgoda bo'lib o'tgan BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi 26-Tomonlar Konferensiyasida MOMEM tomonidan tashkil etilgan Markaziy Osiyo pavilyonida O'zbekiston Respublikasi ITKQV "yashil" rivojlanishning ustuvorliklarini taqdim etdi va bu bilan ushbu jarayonni mintaqaviy hamda global miqyosda ma'lum qildi.

## Sessiyada

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, O'zGidromet, Xalqaro Vestminster maktabi, Toshkent davlat agrar universiteti, BMTTD, Jahon banki vakillari so'zga chiqdilar.

Siyosiy muloqotlar davomida O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va davlat organlari "yashil" kun tartibini ilgari surish bo'yicha o'z rejaları va niyatlari bilan o'rtoqlashdilar. Quyida ba'zi misollar keltirilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjeti va davlat xaridlari amaliyotini "yashillashtirish" bo'yicha ish olib borish, Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) moliyalashtirish monitoringi tizimini ishlab chiqishni maqsad qilgan, u "yashil" taksonomiyani joriy etishdan manfaatdor;
- O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi energiya samaradorligi bo'yicha boshqarma tashkil etdi, toza energiyaga investitsiya kiritishda iqtisodiy rag'batlar joriy etishni davom ettiradi;
- O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi suvni tejaydigan texnologiyalar va zamonaviy nasos stansiyalarini joriy etishni har tomonlama qo'llab quvvatlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi 2030-yilgacha o'rmon bilan qoplangan maydonlarni ikki barobarga oshirish maqsadida o'rmonlarni tiklash va o'rmon plantatsiyalari maydonlarini ko'paytirishni davom ettiradi. Oxirgi yillarda 600 ming gektar, shu jumladan, Orolbo'yida 458 ming gektar o'rmonzorlar barpo etildi;
- Xususiy sektor iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sohasida o'z yetakchiligini oshiradi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ta'lim tizimida "yashil" modullarni ishlab chiqadi, yoshlar uchun yangi bandlik imkoniyatlarini, innovatsion yechimlarni, jumladan, raqamli texnologiyalar sohasini taklif etadi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan manfaatdor tomonlarni xaritalash mahalliy an'anaviy tuzilmalarni, jumladan, mahallani bu ishlarga ko'proq jalb qilish zarurligini ko'rsatadi;
- O'zGidromet iqlim bo'yicha strategiya va yo'l xaritasini yakunlash ustida ish olib bormoqda, shuningdek, qishloq va suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, shahar muhiti kabi iqtisodiyotning muhim sohasidagi moslashish rejaları ustida ishlamoqda.

## Muhokama va xulosalar: biz birgalikda nimalarga erishdik

- Ishtirokchilar 11 ta davra suhbatidan iborat siyosiy muloqotlarning ochiq va interaktiv formatini yuqori baholadilar hamda iqlim o'zgarishi va "yashil" o'sish kabi dolzarb mavzular bo'yicha o'z bilimlarini kengaytirish imkoniyatini qayd ettilar.
- 2021 yilning avgustidan 2022 yilning fevraligacha onlayn rejimda va shaxsan ishtiroklarda tashkil etilgan 11 ta muloqotlar turkumi davlat va ilmiy-ta'lim muassasalari, parlament va mahalliy hokimiyat organlari, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatlari kabi 30 ta tashkilotdan 700 dan ortiq vakillarni jalb etdi.
- Muloqotlarning yakunlari bo'yicha barcha manfaatdor tomonlarning xabardorligini oshirish va salohiyatini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvining barcha darajalarida "yashil" va iqlim kun tartibining ahamiyatini ko'tarish bo'yicha ishlarni yanada jadallashtirishga turtki berildi. O'zbekiston Respublikasi ITKQV ma'lumotlariga ko'ra, muloqotlar "yashil" iqtisodiyotga o'tishni amalga oshirish bo'yicha bajariladigan amallarni muvofiqlashga yordam berdi.
- Muloqotlar davomida bildirilgan asosiy masalalar, ilg'or tajriba va takliflar manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni shakllantirishga yordam berdi. Hukumat organlari keyingi qadamlar uchun asos bo'lib xizmat qiladigan tavsiyalar va harakatlarni, jumladan, Jahon banki ko'magida O'zbekiston Respublikasi ITKQV salohiyatini rivojlantirish, iqlim o'zgarishini institutsional baholash, makroiqtisodiyot, "yashil" ish o'rinlari, moliyaviy rag'batlar, energetika sektorini karbonsizlash tahlili bo'yicha hujjatlar chiqarish va "yashil" o'sish konferentsiyasi sohasidagi sa'y-harakatlarni ma'qullashdi.
- O'zbekiston Respublikasi ITKQV bergan bahosiga ko'ra, siyosiy muloqotlarning natijalari O'zbekiston taraqqiyoti uchun hayotiy zarur bo'lgan iqlim o'zgarishi, "yashil" o'tish va "yashil" o'sish bo'yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqishga salmoqli hissa qo'shadi. 2022-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi hukumati 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi besh yillik rivojlanish strategiyasini tasdiqladi. Uning ustuvorliklari qatoridan energiya va resurslardan samarali foydalanish, yoqilg'i iste'molini kamaytirish hamda emissiyalarni qisqartirish uchun energetika tarmog'ini isloh qilish, iqlim va tarmoqlar bo'yicha me'yoriy bazani yangilash, "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish va landshaftlarni tiklashga investitsiyalar kiritish joy olgan.
- Xalqaro rivojlanish bo'yicha hamkorlar bilan birgalikda belgilab berilgan ustuvorliklar asosida "yashil" o'sishning strategik asoslari taqdim etildi. O'zbekiston Respublikasi ITKQV tomonidan qo'llab-quvvatlash 2022-yilning apreligacha "yashil" iqtisodiyot asoslarini va yo'l xaritasini ishlab chiqish jarayonini o'z ichiga oladi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan mamlakat bilan hamkorlik dasturining kredit mexanizmlari, shu jumladan, uzoq muddatli strategiyaning keyingi tadbirlari Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mumkin.
- 200 000 dan ortiq kishi ommaviy axborot vositalari va muloqotlar turkumini yoritgan maqolalar orqali iqlim o'zgarishi va "yashil" o'sish haqida bevosita ma'lumotga ega bo'ldilar.



